



O‘ZBEKISTON VA QOZOG‘ISTON PREZIDENTLARI XIVADA UCHRASHUV O‘TKAZADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Qozog‘iston
Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev 5-aprel kuni
tashrif bilan mamlakatimizda bo‘ladi.

Qadimiy Xiva shahrida o‘tadigan muzo-
karalarda O‘zbekiston bilan Qozog‘iston
o‘rtasidagi strategik sheriklik va itifoq-
chilik munosabatlarini yanada mustah-
kamlash hamda ko‘p qirrali hamkorlikni
kengaytirishning dolzarb masalalari ko‘rib
chiqiladi.

O‘zaro tovar ayirboshlash hajmini ko‘-
paytirish, iqtisodiyotning muhim tarmoq-

larida kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish,
transport va energetika sohalarida infratuzil-
maviy loyihalarni amalga oshirish, humanitar
dasturlarni faollashtirishga alohida e‘tibor
qaratiladi.

Davlat rahbarlari mintaqaviy kun tarti-
bidagi masalalarni ham muhokama qila-
dilar.

O‘ZA

QARDOSHLIK RISHTALARI



O‘zbekiston – Qozog‘iston: MUSHTARAK TARIX VA UMUMIY FAROVONLIKKA SODIQLIK NAMUNASI

5-aprel kuni Qozog‘iston Prezidenti Qasim-Jomart Toqayev
tashrif bilan O‘zbekistonga keladi.

O‘zbekiston va Qozog‘iston eng yaqin
qo‘shni hamda itifoqchi davlatlardir.
Ularining munosabatlari umumiy do‘stlik
va yaxshi qo‘shnichilik tamoyillari asosiga
qurilgan.

Har ikki davlat ham mintaqaviy sherik-
lik kun tartibini izchil rivojlantirmoqda.
Bu jarayonda har bir mamlakatning uzoq
muddatli va izchil rivojlanishi butun

mintaqaning barqarorligi va farovonligi
bilan uzviy bog‘liqligiga alohida e‘tibor
qaratilmoqda. Birgalikdagi sa‘y-harakatlar
natijasida Markaziy Osiyoda mutlaqo yangi
siyosiy muhit vujudga keldi. Mintaqa
xalqaro diplomatiya, siyosiy faollik va iqtis-
odiy rivojlanishning yangi markazi sifati-
da shakllanmoqda.

► Davomi 2-betda

Prezident tashrifidan so‘ng

TURIZM KO‘CHASI bugun, kelajak va o‘tmish o‘rtasidagi ko‘prik

Serqatnov ko‘chalar,
baland binolar, gavjum
bozor, qayergadir tinimsiz
shohshayotgan odamlar. Bu
Toshkentning biz ko‘rib,
ko‘nikib qolgan qiyofasi.
Ammo qadim kentni yaqindan
o‘rgana boshlaganing sari
uning jamoli tobora ochilib
boradi. Avval sershovqin
ko‘chalar birdan tin oladi.
Sinchdan qilingan, devori
loysovuq uylar naqshinkor
darvozalarini keng ochadi.
Bozor ham o‘ziga xos,
humarmandlar rastalari,
novvoyxonalar, o‘choq-
tandirga yonma-yon qo‘yilgan
so‘rilar. Chorpo-yalar
tepasidagi to‘rxaltalarda
bedana sayraydi.

Ulardan narida, toshyo‘lakda o‘ynab
yurgan bolalar o‘tgan-qaytgan yo‘lovchiga
salom beradi. Shunday zamonda, yetti
yot begonaga salom berish... ajablanasan.
Jinko‘chalar oralab kelayotgan mo‘ysafid-



larning yuz-ko‘zida masrurlik, xotirjamlik
balqib turadi. Beixtiyor o‘zingni vaqt
masinasini bilan o‘tmishga tushib qolganday
his etasan.

Bu hech qanday kitobdan ko‘chirma
yoki kinotasvir bayoni emas. Aksincha,
qadim Shoshning ming yillik tarixga ega
Gulbozor mahallasining bugungi qiyofasi.
Mahalla bugun iqtisodiyotning drayveri
bo‘lgan turizm hududiga aylantirildi.
Kelgusida u Shayxontohur tumanida

tashkil etilayotgan “turizm halqasi”ning
bir qismi bo‘ladi.

Mahallaning asosiy yo‘li, O‘zbekis-
ton davlat drama teatri yonidan boshlab
Ko‘kaldosh madrasasi yonidan o‘tib,
Chorsu bozoriga tutash ko‘cha turizmga
moslashtirildi. Hozir ko‘cha boshida
tiklangan tarixiy darvozadan o‘tishingiz
hamon qadimiylik va milliylik muhitini his
etasiz.

► Davomi 3-betda

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

O‘ZBEKISTON FAXRIYLARINING IJTIMOIIY FAOLİYATINI QO‘LLAB-QUVVATLASH “NURONIIY” JAMG‘ARMASI, O‘ZBEKISTON MUSULMONLARI IDORASI, KONFESSIYALAR ISHLARI BO‘YICHA KENGASH HAMDA MILLIIY MADANIY MARKAZLAR RESPUBLIKA JAMOATCHILIK KENGASHINING XALQIMIZGA MUROJAATI

Ushbu maqsadda budjetda nazarda
tutilgan 50 milliard so‘m ajratiladi. Joy-
larda 444 ta yashil bog‘ va 160 ta ja-
moat parkini tashkil qilishga ko‘rsatma
berildi.

Prezidentimizning jonkuyarlik bilan
aytgan so‘zlari hayotiy asosga ega.
Chunki so‘nggi paytlarda aholi orasida
atrof-muhitga bepisand, loqayd qarash
hollari kuzatilmoqda.

Bunday holatlar tobora ko‘payishi
natijasida global ekologik muammolar
yuzaga kelmoqda.

Hurmatli yurtdoshlar!

Barcha din va milliy madaniyat-
lar insonlarni doimo poklik va ozo-
dalikka chaqiradi. Avvalo, qalbdan
boshlangan poklik ruh-u tanimizni,
yashab turgan Vatanimizni ozoda
saqlashga chorlaydi. Zero, Hadisi
shariflarda keltirilishicha, “poklik
imomning yarmidir.”

Ko‘rinib turganidek, atrof-muhit pok-
ligi qalb pokligi bilan bevosita uyg‘un.

Xonadonlarimiz, xususan, ko‘p qa-
vatli uylarning atrofi, ariqlar, ko‘chalar,
qabriston va uning atrofini hashar yo‘li
bilan tozalashdek go‘zal odat qadim-
dan xalqimiz orasida urf bo‘lib kelgan.

Ammo taassufki, so‘nggi paytlarda yurt-
doshlarimiz bu qadriyatlardan uzoqla-
shayotgandek go‘yo.

Shu bois, davlatimiz rahbari bu ma-
salaga mahalla faollari, nuroniylar,
ulamolar, milliy madaniy markazlar
vakillari, ommaviy axborot vositalari
va keng jamoatchilikni e‘tibor qara-
tishga da‘vat etib, barchaning zimma-
sidagi muhim vazifani shunday ba-
yon etdilar: “Albatta, bunday muam-
molarni faqat ma‘muriy yo‘l bilan
hal etib bo‘lmaydi. Bunga yosh avlod
qalbida ona tabiatga daxldorlik hissi-
ni tarbiyalash orqali erishish mumkin.
Mahallada, ko‘chalarda chiqindi tash-
lagan kishini ko‘rganda “bu ishingiz
noto‘g‘ri bo‘ldi”, deyidigan muhitni
shakllantirishimiz, odamlarni bun-
ga o‘rgatishimiz kerak. Bu — ham-
mamizning ishimiz va insoniy bur-
chimizdir».

Ota-bobolarimiz og‘ishmay amal
qilib kelgan ushbu hikmatga, avvalo,
o‘zimiz rioya qilishimiz, qolaversa,

o‘sib kelayotgan yosh avlodga go‘zal
tarzda o‘rgatishimiz kerak.

Zero, atrof-muhtini pokiza saqlash
ham bugungi kunning dolzarb ma-
salaridan hisoblanadi.

Ming afsuski, ba‘zi joylarda chiqin-
dilarni suvga oqizish, yo‘l chetlarida
qoldirish holatlari uchrab turibdi.

Ayniqsa, oqar suv — kanallar,
arig‘u anhorlarga chiqindilarning atay-
lab oqizilayotgani juda achinarli. Ilo-
hiy manbalarning ta‘lim berishicha,
qurg‘oqchilikning ko‘payishi, dehqon-
chilikdan qut-barakaning ko‘tarilishi,
turli kasalliklarning tarqalishi hamda
o‘t, suv balosi kabi tabiiy ofatlar in-
sonlarning qilmishlariga yarasha ogoh-
lantirish hisoblanadi.

Ulug‘ allomalar asarlarida, buyuk
tarixiy shaxslarning hikmatlarida
atrof-muhitga oid qator masalalar ba-
yon etilgan. Jumladan, Abu Ali ibn Sino
“Tib qonunlari” asarida atrof-muhtining
inson salomatligi va ruhiyatiga ta‘sirini
ochib bergan.

Amir Temur bo‘z yerlarni o‘zlashtir-
gan kishilar yoki bog‘ barpo qilganlarni
rag‘batlantirgan. Alisher Navoiy esa ta-
biatga xiyonatni do‘stga xiyonat qilish-
ga qiyos qilgan.

Muhtaram yurtdoshlar!

Imonli kishi tabiatga ozor ber-
maydi. Balki uni obod qilish, ko‘ka-
lamzorlashtirish payida bo‘ladi.
Ko‘chat ekish haqida gap ketarkan,
uning ahmiyatini Imom Buxoriy
bobomiz rivoyat qilgan quyidagi
Hadisi sharifdan bilib olamiz: “Agar
Qiyomat qoim bo‘lsa-yu, qay birin-
gizni qo‘lida bir dona xurmo ko‘cha-
ti bo‘lsa, Qiyomat qoim bo‘lguncha
uni ekishga qodir bo‘lsa, uni ekib
qo‘ysin”.

Haqiqatda, Yaratganning nazdida
obod qiluvchilar qatorida bo‘lish eng
afzal ishlarandir.

Shu bois, shu aziz yurtning har bir
fuqarosi “Yashil makon” umummilliy
tadbiri doirasida o‘zi yashab turgan
shaharu qishlog‘ini, mahallasini obod
qilishda faol bo‘lishi lozim. Bu ikki
karra yutuqdiki, ham yurtimiz obod
bo‘lib, shaharu qishloqlarimiz qiyofa-
si ko‘rkamlashadi, ham bunday xayrli

ishlarimizning savobi sadaqai joriya
sifatida amal daftarimizga yoziladi.

Ushbu yaxshi maqsadlarga erishish
din va e‘tiqoddan qat‘i nazar, barcha
fuqarolardan kuchlarni birlashtirishni
talab qiladi.

Shunga asoslanib, biz, O‘zbekistonda
yashayotgan diniy konfessiyalar, milliy
madaniy markazlar hamda “Nuroniyy”
jamg‘armasi rahbarlari barcha vatandosh-
larimizga bir ovozdan murojaat etamiz:

— jannatmonand O‘zbekiston tabia-
tini asrang, uylarimiz, ko‘chalarimiz,
mahallalarimiz, qishloq va shaharlarimiz
tozaligiga hissa qo‘shing va “Dolzarb
o‘n kunlik” tadbirlarida faol bo‘ling;

— Prezidentimiz tomonidan e‘lon
qilingan “Yangi O‘zbekiston — yashil
makonda birga yashaylik!” umummilliy
loyihasi doirasida obodonlashtirish va
ko‘kalamzorlashtirish tashabbuslarini
qo‘llab-quvvatlang;

— yaratilayotgan keng imkoniyatlar-
dan foydalangan holda muborak Haj sa-
fariga otlanayotgan 15 ming nafar vatan-
doshlarimiz “Obod xonadon — obod
ko‘cha — obod mahalla” tamoyili asosi-
da ishlarni tashkil etishda mahalladosh-
larga o‘mak bo‘ling. Sizlarning bu
boradagi sa‘y-harakatlarigiz boshqa-
larga ibrat bo‘lib xizmat qiladi;

— ezgu an‘analimizga hamohang
tarzda har bir xonadonda farzandlar
ota-onalariga, ota-onalar farzandiga atab
daraxt ko‘chatlari ekishi va o‘stirishi
tashabbusini ilgari suramiz;

— hayotiy tajriba, duo va tilaklari
xalqimiz uchun hamisha katta tayanch
bo‘lib kelgan 3 million nafardan ortiq
nuroniylardan aholi tomonidan
ko‘chatlarni sifati ekishni tashkillashti-
rishda yoshlarga namuna o‘laroq yanada
faollik va tashabbus kutib qolamiz;

— daraxt ekish, gul-u rayhon o‘stirish
va ularni parvarishlashni egzu
qadriyatga aylantiraylik! Muqaddas
an‘analimiz qatorida farzandlarimiz
qalbiga singdiraylik!

Yaratgan Parvardigor barchamizni
poklikka intiluvchi, bilganlariga amal
qiluvchi, jism-u imoni, uy-joyi —
Vatanini toza tutuvchi, bog‘-u rog‘lar
o‘stiruvchi va Yer yuzini obod qiluvchi-
lardan qilsin!

Munosabat

ZAMONAVIIY SHAHAR MA‘NAVIY-MA‘RIFIY MARKAZLARDAN BOSHLANADI

Yangi shahar qurish hech bir zamonda oson bo‘lmagan. Ayniqsa,
dunyoda geosiyosiy ziddiyatlar avj olayotgan, ekologik muammolar
ko‘lami kun sayin kengayib borayotgan bugungi davrda zamonaviy
urbanizatsiya yondashuvlari asosida “aqlii” texnologiyalarni
qo‘llab, butun bir shaharni noldan barpo etish katta jasorat.

Bundan bir yil avval Yangi Toshkent
shahrining qurilishiga tamol toshi qo‘yilgan
edi. Xalqimizda “Maslahatli to‘y tarqamas”
degan naql bor. Davlatimiz rahbari 2023-
yil 18-martda o‘tkazilgan marosimda

davlat va jamoat tashkilotlari vakillari,
nuroniyalar, ziyolilar va yoshlar bilan Yangi
Toshkentning qanday bo‘lishi, yaratilishi
lozim bo‘lgan sharoit, umuman, shaharning
kelajagi haqida maslahatlashgan edi.



Bilasizmi, bunday katta ishni boshlash
va samarali davom ettirish uchun kuchli
siyosiy iroda, qolaversa, davlatning o‘zi
yuritayotgan islohotlari natijadorligiga
ishonch bo‘lishi kerak. Shahar qurilishida
davlat rahbari katta-yu kichik, barcha soha
kishilari bilan maslahatlashib, kengashib
ish tutganining o‘zi mana shu ishonchni yuz
karra oshiradi.

Prezidentimiz joriy yil 3-aprel kuni
poytaxtda olib borilayotgan bunyodkorlik
ishlari, yangi ta‘lim va turizm obyektlarida
yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi va Yangi
Toshkent shahrining ilk inshootlari qurilishini
boshlab berdi. Marosimda davlatimiz rahbari
yangi shahar, avvalo, ilm-fan, ma‘naviy-
ma‘rifiy maskanlaridan boshlanishi kerakligini
ta‘kidlaganida juda xursand bo‘ldim. Bu kent
bizni, jonajon O‘zbekistonimizni dunyoga
ko‘rsatadigan shahar bo‘ladi.

Faraz qiling, bir hududda “Yangi
O‘zbekiston” universiteti va Toshkent davlat
pedagogika universitetining kampuslari,
Milliy kutubxona, Milliy teatr, Alisher
Navoiy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot
markazi, Adabiyot muzeyi, ijod maktabi
hamda Milliy maqom markaziga tamol toshi
qo‘yildi.

► Davomi 2-betda



Munosabat

ZAMONAVIY SHAHAR MA'NAVIY-MA'RIFIY
MARKAZLARDAN BOSHLANADI

Shuhrat SIROJIDDINOV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektori, akademik

Boshlanishi 1-betda

U yerdagi atmosfera kishiga o'zgacha bir ijodiy kayfiyat, fan sirlarini ochishga, ajdodlar merosini o'rganishga so'nmas ishtiyoq beradi. 1420 nafar kitobxonga sifatli xizmat ko'rsatish uchun barcha sharoitlar yaratilishi ko'zda tutilayotgan O'zbekiston Milliy kutubxonasi 10 milliondan ortiq adabiyotni munosib saqlashi haqidagi ma'lumot ham barchamizni quvontirdi.

Shu o'rinda Alisher Navoiy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi haqida so'z yuritsak. Majmua tarzida tashkil

etiladigan maskanda Fanlar akademiyasi huzuridagi adabiyot muzeyi, Alisher Navoiy nomidagi ixtisoslashtirilgan ijod maktabi, Alisher Navoiy xalqaro fondi, Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Maqom markazi joylashtiriladi. Shu jihatdan mazkur majmua o'zbek xalqi qadriyatlarini, madaniyatini, tilini Alisher Navoiy siymosi orqali dunyoga ko'rsatuvchi ajib bir ziyo maskani bo'ladi.

E'tiborlisi, bu yerda katta-katta ilmiy tadqiqot ishlari olib boriladi. Uning kelajagi porloq. Kelgusida dunyo sahnida e'tirof etilishiga ishonamiz. Boisi, markazda jahonning nufuzli olimlari, yosh izlanuvchilar tadqiqot olib borishi, ilm-fan, adabiyotning yangi imkoniyatlarini ochishi uchun munosib sharoit yaratiladi. Alisher Navoiyning adabiy merosini xalqaro miqyosda targ'ib etish ayni paytda dunyo xalqlarini davlatimiz va xalqimizning ezu intilishlaridan xabardor qilish ishlari bilan uyg'un ekanini anglatadi.

Ta'kidlash joiz, mustaqillik yillarida Alisher Navoiy nomi o'zbek xalqining kim ekanini ifoda etuvchi milliy timsolga aylandi. Bugun Yer kurrasining qaysi burchagida hazrat Navoiy siymosi xotirlansa, albatta, millatimiz, jonajon vatanimiz ham tilga olinadi. Yangi tashkil etilayotgan majmua, unda amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqotlar ham asrlar osha xalqimizni xalqaro miqyosda tanitishga xizmat qiladi.

Adabiy-ilmiiy tadqiqotlar amalga oshiriladigan markaz Alisher Navoiy bobomiz nomi bilan atalganining o'ziyoq bu yo'lda ulug' mutafakkir g'oyalarini amalga oshirish, xalqimiz madaniyatini, o'zbek tili va adabiyotini xalqaro miqyosda targ'ib etishdek ulug' maqsad borligini anglatadi.

Yurtimizning boy ilmiy, tarixiy, madaniy va ma'naviy merosini o'rganishga qiziqish yuqori bo'lgan xorijdagi ta'lim va ilmiy tashkilotlarning markazga tashrif buyurishi, u yerda tadqiqot ishlari olib borishi, tariximizni o'rganishi yurtimiz imiji yanada yuksalishiga xizmat qiladi.

Tamaddun hodisalari har qanday xalqning ilm-ma'rifat tizginini mahkam tutib, aniq maqsadlar sari yakdil odimlashidan boshlanadi. Men ishonch bilan ayta olaman, bugun millatimiz ilm-fanni, insoniy qadriyatlarni rivojlantirish yo'lidan izchil boryapti. Bu kabi imkoniyatlar nafaqat biz kabi ilm-fan namoyandalarga, barcha soha kishilariga, kattayu kichik ko'ngliga iftixor tuyg'usini ulashadi.



Tashkil etilishi ko'zda tutilayotgan ijod maktabida esa bir nechta tilni biluvchi, tafakkuri keng, ijodkor yoshlar tarbiyalanadi. Bular mamlakatimiz ijtimoiy hayotida yetakchi kuch sifatida barcha tengdoshlariga namuna bo'ladi. Mafkuraviy jihatdan baquvvat, sog'lom e'tiqodli yoshlarni tarbiyalash nazarda tutilyapti.

Yana bir jihatni ta'kidlashni istar edik. Poytaxtimizning Alisher Navoiy ko'chasida joylashgan Adabiyot muzeyi hududi juda kichkina. Shuning uchun ham biz yillar davomida yurtidoshlarimiz va chet eldan tashrif buyuruvchilarga adabiy boyliklarimizni to'liq namoyon qilib berolmadik. Endi qad ko'taradigan yangi bino mana shunday kamchiliklarga ham barham beradi.

Alisher Navoiy o'z asarlarida tinchlik va osoyishtalik, el-yurt manfaati uchun

yashash kabi umumbashariy qadriyatlarini, adolat va poklik, vatanparvarlik, do'stlik, sadoqat, kamtarlik kabi insoniy fazilatlarini targ'ib qilgan, barkamol badiiy obrazlarda mujassam etgan ulug' murabbiydir. Davlatimizning bag'rikenglik, tinchliksevarlik va birdamlik siyosati, jahon hamjamiyati qarshisida millatimiz obro'sini ko'tarish, tilimizning vatanimizdan uzoq-uzoqlarda ham e'zozlanishi va u orqali madaniyatimizga alohida ehtirom ko'rsatilishiga erishish yo'lidagi sa'y-harakatlari buyuk bobokalonimiz nomi bilan ataluvchi o'zbek tili va madaniyat markazlari doirasida o'z natijasini ko'rsatishiga ishonamiz.

Keyingi yillarda o'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini, obro'sini ko'tarish, qo'llanish doirasini kengaytirish, xalqaro maqomini yuksaltirish borasida

bir-birini to'ldiruvchi muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi. Davrlar o'zgarayotgan, munosabatlar, ziddiyatlar to'qnashayotgan chorahada haqiqiy adabiyot, san'at abadiyatga daxldorlik maqomini saqlab qoladi. Shu jihatdan olib qaraganda, asrlar sinoviga bardosh beradigan betakror asarlarni o'rganish, izlanish uchun munosib sharoit yaratish g'oyat ulkan ish.

Tamaddun hodisalari har qanday xalqning ilm-ma'rifat tizginini mahkam tutib, aniq maqsadlar sari yakdil odimlashidan boshlanadi. Men ishonch bilan ayta olaman, bugun millatimiz ilm-fanni, insoniy qadriyatlarni rivojlantirish yo'lidan izchil boryapti. Bu kabi imkoniyatlar nafaqat biz kabi ilm-fan namoyandalarga, barcha soha kishilariga, kattayu kichik ko'ngliga iftixor tuyg'usini ulashadi.

Dunyoda rivojlangan shaharlar, osmono'par binolar ko'p. Yangi Toshkent mana shunday maskanlarni ortda qoldiradigan bir sevimli go'sha bo'ladi. Shahar qurilishiga tamal tosh qo'yilishi timsolida uzoq kelajakda ham baxtli hayot kafolatining asosini ko'rish mumkin. Yurtimizda qadim zamonlardan me'morchilik va shaharsozlik an'analari rivojlanib kelgan. Necha asrlar avval bunyod etilgan Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlarimiz o'zining go'zal qiyofasi, pishiqligi bilan dunyo e'tirofiga sazovor bo'lmoqda. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, bugun poydevori qo'yilayotgan maskanlar ko'p yillar xalqimiz ma'naviyatini boyitish, yoshlarimizni har tomonlama yetuk va barkamol insonlar etib tarbiyalashga xizmat qiladi.

Qardoshlik rishtalari

O'zbekiston – Qozog'iston: MUSHTARAK TARIX VA
UMUMIY FAROVONLIKKA SODIQLIK NAMUNASI

Boshlanishi 1-betda

O'zbekiston Prezidenti tomonidan 2017-yilda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ilgari surilgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari mexanizmi doirasida samarali muloqot olib borilmoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston va Qozog'iston rahbarlari mintaqani xalqaro hamkorlikning tobora muhim mexanizmlariga aylanib borayotgan "Markaziy Osiyo +" platformalari doirasida ham birlashtirishga sodiq ekanliklarini namoyish etmoqdalar.

1992-yil noyabr oyida diplomatik munosabatlar o'rnatilganidan buyon O'zbekiston va Qozog'iston jiti-moiy-siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalarida ikki tomonlama hamda ko'p tomonlama hamkorlikning dinamik modelini namoyish etdi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 22-23-mart va 2021-yil 5-6-dekabr kunlari Qozog'iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning 2019-yil 14-15-aprel va 2022-yil 21-22-dekabr kunlari O'zbekistonga davlat tashriflari yanig' bosqichdagi o'zaro hamkorlik uchun kuchli turki bo'ldi. Ushbu tashriflar natijasida bir qator hukumatlararo va idoralararo hujjatlar, shuningdek, savdo-iqtisodiy hamkorlik sohasidagi kelishuvlar to'plami imzolandi. Davlatlarimiz o'rtasida Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnomaning imzolanishi ikki tomonlama aloqalarni misli ko'rilmagan yuqori darajaga ko'targan chinakam tarixiy voqea bo'ldi.

Ikki davlat xalqaro siyosat masalalarida bir-birini qo'llab-quvvatlab, xalqaro tashkilotlar — BMT, SHHT, MDH, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti, Orolni qutqarish xalqaro

jamg'armasi va boshqa tashkilotlar doirasida samarali hamkorlik qilmoqda. Mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik ko'plab masalalar yuzasidan tomonlarning pozitsiyalari o'xshash.

Bu borada ikki davlat tashqi siyosat idoralari o'rtasidagi muntazam aloqalar muhim o'rinni tutadi. Joriy yil fevral oyida O'zbekiston tashqi ishlar vaziri Baxtiyor Saidov rasmiy tashrif bilan Qozog'istonda bo'ldi. Tashrif davomida O'zbekiston TIV rahbari Prezident Qosim-Jomart Toqayev tomonidan qabul qilindi va Bosh vazir



Koshanovning O'zbekistonga tashrifi doirasida Parlamentlararo hamkorlik kengashining birinchi majlisi bo'lib o'tdi.

Qozog'iston O'zbekistonning uchinchi yirik tashqi savdo hamkori bo'lib, mamlakatimiz umumiy savdo hajmining 9,3 foizini tashkil etadi. Keyingi besh yilda mamlakatlarimiz o'rtasidagi tovar ayirboshlash pandemiyaga oqibatlariga qaramay barqaror o'sib bormoqda. 2023-yilda bu ko'rsatkich 4,4 milliard AQSH dollarini tashkil qildi.

Bugungi kunda O'zbekistonda 1250 dan ortiq Qozog'iston korxonasi, Qozog'istonda esa o'zbek kapitali ishtirokida 1400 dan ortiq kompaniya faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston — Qozog'iston hamkorligini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan yana biri, bu — transport kommunikatsiyalari sohasidir. Mamlakatlarimiz avtomobil va temir yo'llari o'zaro integratsiyalashgan. Ushbu muhim aloqa tarmog'ini uchinchi davlatlar uchun tranzit vazifasini o'tiyapti. 2023-yilda temir

yo'l transportida xalqaro tashish hajmi 23,46 million tonna, avtomobil transportida 2,1 million tonna, havo transportida esa 90 ming tonnani tashkil etdi.

Ikki tomonlama savdo-iqtisodiy hamkorlikning faol yo'nalishlari investitsiya, sanoat, qishloq xo'jaligi, energetika, farmatsevtika, qurilish va boshqa sohalaridir. Bu sa'y-harakatlarga qo'shimcha turki berish maqsadida qo'shma Xalqaro sanoat kooperatsiyasi markazi tashkil etildi.

Hududlararo aloqalar o'zaro hamkorlikning yanada mustahkamlanishiga sabab bo'layotir. 2018-yildan boshlab ikki tomonlama hamkorlikning yangi mexanizmi — Hududlararo hamkorlik forumi ishga tushirildi. Bugungi kunga qadar uchta shunday forum o'tkazildi. Ikki davlatning chegaradosh viloyatlari rahbarlari o'zaro mahsulot yetkazib berish, yangi hamkorlik loyihalarini ishlab chiqish masalalarida yaqindan hamkorlik qilib kelmoqda.

O'zbekiston va Qozog'iston tarixiy, ma'naviy va madaniy yaqinlikdagi yaxshi qo'shnilar, shuningdek, Markaziy Osiyo salohiyatini mustahkamlash,

butun mintaqada tinchlik va farovonlikni ta'minlashga hissa qo'shayotgan ishonchli strategik hamkorlardir.

Qardosh O'zbekiston va Qozog'iston xalqlari Markaziy Osiyo qadimiy tamaddunining vorislari bo'lib, ular o'z ajdollarining an'analari, qadriyatlari, madaniy-ma'naviy merosini asrab-avaylab kelmoqda. Ushbu muhim omil ikki davlat o'rtasidagi madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qilaypti.

Tarixiy aloqalarni mustahkamlashga, shuningdek, ikki davlat hududlarida istiqomat qilayotgan o'zbek va qozoq millatlari vakillari ham munosib hissa qo'shmoqda. Mamlakatimizdagi qozoq millati vakillarining o'z ona tilini asrab-avaylashi uchun barcha sharoit yaratilgan. Xususan, yurtimizda 400 ta maktabda ta'lim faqat qozoq tilida tashkil etilgan. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Qoraqalpog' davlat universiteti, Guliston davlat universiteti, Nukus, Jizzax va Navoiy davlat pedagogika institutlarida qozoq tili va adabiyoti fakulteti va kafedralari mavjud.

Oliy ta'lim sohasida ikki mamlakat universitetlari o'rtasida hamkorlik bo'yicha 280 dan ortiq shartnoma va memorandumlar tuzilgan. 2022-yil 22-dekabr kuni Oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim sohasida hamkorlik to'g'risida bitim imzolandi.

O'zbekistonda har yili Qozog'iston oliy o'quv yurtlarining ko'rgazma va yarmakalari — Qozog'iston ta'limi kunlari o'tkaziladi. Ularda mahalliy konsalting kompaniyalari ko'magida Qozog'istonning 40 ga yaqin universitetlari vakillari qatnashadi. Shuningdek, O'zbekiston va Qozog'iston oliy o'quv yurtlari o'rtasida 4 ta qo'shma ta'lim dasturi amalga oshirilaypti va ularda 188 nafar talaba tahsil olmoqda.

Bundan tashqari, ikki mamlakat Fanlar akademiyalari o'rtasida samarali hamkorlik yo'lga qo'yilgan. U an'anaviy tarzda ixtisoslashgan institutlar darajasida amalga

oshiriladi. Davlat rahbarlari o'rtasidagi muloqotlarda ilm-fan, ta'lim, madaniyat, san'at, turizm, sport va boshqa sohalaridagi hamkorlikni yanada faollashtirishga intilish qat'iy ta'kidlanadi.

O'zbekiston va Qozog'istonda ko'plab madaniy-ma'rifiy tadbirlar — madaniyat va kino kunlari, sport musobaqalari o'tkazilayotganini ham alohida ta'kidlash kerak. O'zbekiston va Qozog'istonning ijodiy jamoalari ikki mamlakatda o'tkazilayotgan xalqaro tanlov, festival, yarmarka va ko'rgazmalarda muntazam ishtirok etmoqda.

2022-yilda O'zbekiston bo'ylab qozoq xalqining buyuk farzandi, ma'rifatparvar shoir va mutafakkir, ezigulik va do'stlik kuychisi Abay Qo'nonboyev hayoti va ijodiga bag'ishlangan tadbirlar bo'lib o'tdi. 2022-yil dekabr oyida O'zbekistonga oliy darajadagi davlat tashrifi chog'ida ikki davlat rahbarlari buyuk qozoq shoiri va mutafakkiri merosiga bag'ishlangan ko'rgazmani birgalikda tomosha qildilar.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, bunday tadbirlar yaqin do'stona rishtalarni mustahkamlash barobarida, ikki xalqning shonli o'timishi va bugungi hayotiga o'zaro qiziqishni yaqqol namoyon etadi.

Ikki tomonlama hamkorlikning yana bir istiqbolli yo'nalishi, bu — turizm. Davlatlarimizning geografik jihatdan yaqinligi, shuningdek, ulkan tarixiy-madaniy meros va sayyohlik imkoniyatlari mavjudligini inobatga olgan holda tomonlar yagona turizm brendini yaratish va sayyohlik klasterlarini tashkil etish masalasini ko'rib chiqmoqda.

2021-yil yanvar oyida O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasida o'zaro sayyohlik oqimini ko'paytirishni nazarda tutuvchi "Yo'l xaritasi" imzolandi. O'zaro sayyohlik oqimini ko'paytirish yo'nalishidagi ishlar samarasi o'laroq, mamlakatimizga kelayotgan qozoq'istonlik turistlar soni izchil ortib boryapti. Xususan, qo'shni davlatdan yurtimizga kelayotgan sayyohlar soni 2021-yildan buyon uch barobarga oshib, 1,3 millionga yetdi.

Mustasafar aytganda, O'zbekiston va Qozog'iston ko'p asrlik do'stlik, yaxshi qo'shnicilik, o'zaro ishonch va keng ko'lamli sheriklikni mustahkamlash tarafdori bo'lib kelgan. Prezident Qosim-Jomart Toqayevning mamlakatimizga bo'lajak tashrifi mavjud o'zaro manfaatli hamkorlik va konstruktiv muloqotni yanada rivojlantirishga yangi sur'at bag'ishlaydi.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Taraqqiyot yo‘li

Iqtisodiy rivojlanish kichik-kichik natijalar umumlashmasida ko‘zga tashlanadi. Masalan, bitta hududdagi ikkita mahallani olaylik. Biri rivojlangan, aholisi o‘ziga to‘q bo‘lsa, ikkinchisida kambag‘allik avj olgan, odamlar ishsiz, daromadsizlikdan qiyinalayotgan bo‘lsa, o‘sha hududni to‘la rivojlangan deb bo‘lmaydi. Mamlakat iqtisodiyoti ham shunday. Eng olis hududda ham aholi ishli, daromadga ega bo‘lar ekan, bu yurtni rivojlangan davlatlardan biri, deyish mumkin.

Yurtimizda ana shu maqsadga yo‘naltirilgan harakatlar tobora faollashib bormoqda. Islohotlar har bir mahalla, ko‘cha, xonadonga kirib borayotgani odamlarning turmush tarzida ham namoyon. Ayniqsa, ishlarni har bir tuman kesimida olib borishga doir tashabbus bu boradagi aniq tahlillar, harakat va natijalarga yo‘l ochyapti.

Tumanlarning har biri alohida hudud, imkoniyatlari, iqtisodiy o‘shish nuqtalari ham bir-biriga o‘xshamaydi. Ularning eng asosiy drayverlaridan foydalana olish esa iqtisodiy o‘shishni tezlashtiradi. Masalan, Yunusobod tumani poytaxtimizning markazi, eng qulay qismida joylashgani bois, bu yerda tadbirkorlik qilishga intiladigan tashabbuskorlar ko‘p. Ayniqsa, Amir Temur shohko‘chasi keyingi yillarda ishbilarmonlar uchun eng jozibador ko‘chaga, hududning o‘shish nuqtasiga aylandi. Biznes muhiti rivojlanishi esa bevosita aholi bandligini ta‘minlash, ish o‘rinlari yaratishga zamin yaratmoqda.

Yunusobodliklarning ko‘pi asosiy ishidan tashqari qo‘shimcha daromad manbaiga ega. Shu bois, davlatimiz rahbari joriy yilning 3-aprel kuni Xalq deputatlari Toshkent shahri kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi ishtiroki davomida aholi daromadini oshirish bo‘yicha qanday ishlash zarurligini Yunusobod tumani misolida tushuntirdi. Bu yerda ishga solinmagan imkoniyatlar haqida to‘xtalib, tadbirkorlik sohasini qo‘llab-quvvatlash, aholi bandligini ta‘minlash, shahar va tumanimizni yanada obod qilish, bir so‘z bilan aytganda, odamlar rozi bo‘lishi uchun yangicha yondashuv asosida katta marralarni olib, qattiq ishlashimiz yuzasidan vazifalar berdi.

Ishbilarmonlikning boshi

Har kimning yashab turgan joyi o‘ziga qadri, o‘zi uchun farovon go‘sha. Ammo azim poytaxtimiz — Toshkent shahri har bir yurtodoshimiz uchun o‘zgacha sevimli. Shaharning nafaqat go‘zalligi, balki kun sayin rivojlanib borayotgan qizg‘in hayoti odamlarni bu yerda yashashga, ishlashga chorlayveradi. Ayniqsa, keyingi yetti-sakkiz yilda poytaxtda, jumladan, Yunusobod tumanida katta o‘zgarishlar bo‘ldi. Bugun tumanda o‘tayotgan har bir daqiqa bunyodkorlik ishlari,



Bahodir ABDUVALIYEV,
Yunusobod tumani hokimi

har tomonlama yuksalish dovonlari bilan tarixga bitilmoqda. Hududning 400 mingga yaqin aholisi uchun munosib turmush, mehnat sharoitlarini yaratish, ijtimoiy muhofazasini ta‘minlash, kambag‘allar va ishsizlar bilan ishlash, ta‘lim, tibbiyot sohalari, yoshlar va xotin-qizlar bandligini ta‘minlash eng ustuvor vazifaga aylangan. Iqtisodiyotni mustahkamlash, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimli yo‘lga qo‘yilgan.

O‘tgan yillar davomida tumanga 1 milliard 700 million dollar xorijiy investitsiya kiritildi. Korxona, savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari 3,5 mingga, ish o‘rinlari 20 mingga ko‘paydi. Tumanda 6 ming xonadonli yangi uy-joylar qurildi. Natijada hudud tadbirkorlik uchun qulay maydonga, iqtisodiy rivojlanish, ishbilarmonlikni tashkil etishda poytaxtdagi yetakchi tumanlardan biriga aylandi.

Yunusobod nomining o‘zi ham yurtimizda yashab o‘tgan katta tadbirkor ismiga borib taqalar ekan. Manbalarida tuman nomining kelib chiqishi haqida turlicha fikrlar keltiriladi. Mahalliy ziyolilar fikricha, Yunusobod nomining paydo bo‘lishi sebzorlik tadbirkor Yunus hoji Nodir hoji o‘g‘li bilan bog‘liq. Ma‘lumotlarga ko‘ra, XIX asrning 50-yillarida taxtapollik Yunus hoji ismli savdogar Chinobod, Choshtepa va Oqtepa, degan joylarda bo‘sh yotgan bo‘z yerlarni o‘zlashtirishni boshlab yuboradi. Savdogar obod qilib, suv chiqargan yerlarida katta-katta tozalik va mevali bog‘lar barpo qiladi, salobati qo‘rg‘onlar, karvonsaroylar qurdiradi. Hozirgi Chimkent

Barcha loyihalar aholi bandligini ta‘minlashga qaratilgan. Davlatimiz rahbari bu borada alohida topshiriq ham berdi. Ya‘ni joriy yilda Yunusobod tumanida 35 ming ish o‘rni yaratish imkoniyati borligi, bu bo‘yicha alohida dastur ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi.

sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2022-yilning mos davriga nisbatan 100,8 foiz, chakana savdo 109,5 foiz, iste‘mol tovarlari 101,7 foiz, xizmatlar ko‘rsatish hajmi 123,2 foiz, qurilish ishlari 100,6 foiz o‘sd. 2024-yilda ham makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi barcha yo‘nalishlar bo‘yicha ortig‘i bilan bajarilishi hisob-kitob qilingan.

Yig‘ilishda e‘tirof etilgan asosiy jihatlardan biri tumanga kiritilgan xorijiy investitsiyalar ko‘lami bo‘ldi. Bu bejiz emas, albatta. Boisi, hozirgi zamonda mamlakat iqtisodiyotining taraqqiyoti bevosita investitsiyalar oqimiga bog‘liq. Yunusobod tumanida ayni shu jihat uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan bo‘lib, bular, eng avvalo, tadbirkorlik huquqini belgilab beradigan, xususiy mulkchilik va raqobatchilikni

TADBIRKORLIK BOR JOYDA KAMBAG‘ALLIK BO‘LMAYDI

Yunusobod tumanidagi o‘zgarishlar bunga misol



Ta‘limga qaratilayotgan e‘tibor samarasini bermocda

himoya qiladigan qonunlar bazasi yaratilgani, investitsiya jarayonlarini qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilma mavjudligi, eng muhimi, malakali mehnat resurslariga ega ekani bilan yaqqol ko‘zga tashlanib turibdi. Shuning uchun mahalliy va xorijiy investorlarning tumanimizga qiziqishi yildan yilga oshib bormoqda. Natijada o‘tgan yilning o‘zida Yunusobodda 74 ta loyiha ishga tushirilishi ortidan 4,8 trillion so‘m investitsiya o‘zlashtirildi, 3 mingga yaqin yangi ish o‘rni yaratildi. Ushbu davrda 167,9 million dollar xorijiy investitsiya o‘zlashtirildi.

Jumladan, Buyuk Turon mahallasida “UzTur Investment and Development” MCHJ tomonidan zamonaviy mehmonxona qurish va maishiy xizmat ko‘rsatish markazini tashkil etish hisobiga 488 ta yangi ish o‘rni ochildi. Minor mahallasida esa “ORA PROGRESS BIZNES” MCHJ tomonidan ko‘p qavatli turar joy, mehmonxona va biznes markazi tashkil qilish orqali 70 dan ortiq kishining bandligi ta‘minlandi. Prezidentning tegishli qarori bilan tumanda yana 7 ta yirik investitsiya loyihasi tasdiqlangan bo‘lib, 2025-yilga qadar bari ishga tushiriladi.

Barcha loyihalar aholi bandligini ta‘minlashga qaratilgan. Davlatimiz rahbari bu borada alohida topshiriq ham berdi. Ya‘ni joriy yilda Yunusobod tumanida 35 ming ish o‘rni yaratish imkoniyati borligi, bu bo‘yicha alohida dastur ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi. Bunga, ayniqsa, Amir Temur ko‘chasining ikki tomonida zamonaviy binolar va xizmat ko‘rsatish, servis sohalarini bunyod etish evaziga erishilishi ko‘zda tutilgan.

joylashtirish ustuvor vazifalardan biri. Boisi, bugun ta‘lim olayotgan yoshlar etaga kadr sifatida yetishib chiqadi. Ularga bo‘sh ish joylari kerak.

Umuman, Yunusobod tumanida ta‘lim-tarbiyaning barcha bosqichi, ayniqsa, maktabgacha ta‘lim muassasalarini zamon talablariga mos rivojlantirib borishga alohida e‘tibor qaratilgan. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida 3-7 yoshgacha bo‘lgan bolalar soni 24 ming 586 nafarni, DMTTlarga qamrov 21 ming 146 nafarni (86 foiz) tashkil etadi. Agar 2020-yilda yuzga yaqin maktabgacha ta‘lim tashkiloti bo‘lgan bo‘lsa, bugunga kelib, ularning soni 117 taga yetdi.

Tumanda 3-7 yoshli bolalarni maktabgacha ta‘lim tashkilotlariga qamrab olish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada tuman hokimligining maxsus dasturi qabul qilingan. Shu asosda hududdagi mahalla guzarlari qoshida tuman hokimligi tashabbusi bilan muddatli guruhlur, ya‘ni ta‘limning muqobil shakli tashkil qilingan. Ayni kunlarda 20 ta mahallada tuman hokimligi mablag‘lari asosida shunday guruhlar faoliyat yuritaypti. Bu esa murg‘ak qalb egalaringning olam-olam go‘zal orzulariga qanot bo‘lmoqda.

Hozir tumandagi 45 ta umumta‘lim maktabida 63 mingga yaqin o‘quvchi ta‘lim-tarbiya olaypti. 2022-yilda 4251 o‘quvchi maktabni tamomlagan bo‘lsa, o‘tgan o‘quv yilida bu ko‘rsatkich 4461 nafarni tashkil etdi. Ahamiyatlisi, o‘tgan yili maktablarni tamomlagan o‘quvchilarning 78,7 foizi oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga kirgan. Shu tarzda katta hayotga qadam qo‘yayotgan yigit-qizlar soni yildan yilga o‘sib boryapti. Ularga munosib ta‘lim, mehnat sharoitlarini yaratib berish esa asosiy vazifalarimizdan biri.

Hududda ishsizlar, bekorch yurgan yoshlar bo‘lmashigi kerak. Shu bois, tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish xodimlari hamda hokim yordamchilari uyma-uy yurib, ish bilan band bo‘lmagan fuqarolar, jumladan, yoshlar tarkibini doimiy aniqlab boradi. Ular bilan subhatlar o‘tkazilib, qiziqishlari o‘rganiladi va shu asosda tegishli sohalarga yo‘naltiriladi. Ishga joylashish istagida bo‘lgan fuqarolar rasman ish so‘rab murojaat qiluvchi sifatida ro‘yxatga olinib, hokim yordamchilari tomonidan ishga joylashtirish choralari ko‘riladi. Bundan tashqari, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamini kasb-hunarga o‘qitib, o‘z faoliyatini boshlashi uchun subsidiya ajratish ham yo‘lga qo‘yilgan. O‘tgan yillar davomida 500 dan ortiq fuqaro subsidiya olib ish boshladi. Bu yangidan yangi tadbirkorlik subyektlari paydo bo‘lganidan darak.

Yunusobod tumanida eksportyor korxonalar soni ham yildan yilga oshib, ular avvalgi 49 tadan hozir 191 taga yetdi. Eksport geografiyasi 4 taga, mahsulot turlari esa 12 taga ko‘paygan. O‘tgan yili tumanda jami 49 ta korxona tomonidan 182 million dollarlik meva-sabzavot va sanoat mahsulotlari eksport qilindi. Bundan tadbirkorlar yaxshigina daromad topaypti, oilasi farovonligini ta‘minlash barobarida xalq koriga yarayapti, odamlarni ishli qilyapti.

Prezident tashrifidan so‘ng

Boshlanishi 1-betda

Mamlakatimizda har bir mahallaning o‘ziga xos an‘ana va imkoniyatlari to‘g‘ri baholalanib, aholi turmush darajasini yaxshilashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Masalan, davlatimiz rahbari Sirdaryo va Namangan viloyatlariga tashrifi chog‘ida tomorqachilikni rivojlantirishga alohida urg‘u berdi. Chunki o‘sha hududlarning joylashuvi, ijtimoiy-iqtisodiy ko‘lami tomorqadan samarali foydalanishni taqozo etadi.

Gulbozor mahallasi esa boshqa hududlardan tubdan farq qiladi. Qadimdan hunarmandlar, savdo ahli yashaydigan mahalla bo‘lgan. Nomiga asos bo‘lgan tushuncha — to‘rt tomoni gullagan bozor mahalla ahli nafaqat hunarni, balki savdo-sotiq ilmini ham puxta o‘zlashtirgan. Shu bois, ushbu mahallaning “o‘shish nuqtasi” turizm, hunarmandchilik va savdo-sotiq ishlari hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishlar orqali aholi daromadini oshirish rejalashtirilgan.

— Mahallamiz asosan, o‘rta yoshdagi oilalardan iborat, — deydi “Gulbozor” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Marg‘uba Tojiyeva. — Turizm ko‘chasida 45 ta oila bor. Ularning barchasi to‘liq ish bilan ta‘minlandi. Hatto uyda bola parvarishi bilan o‘tirgan kelinlar ham biron hunarning boshini tutgan. Masalan, ko‘chaning o‘zida 4 ta novvoyxona, 9 ta hunarmandchilik, 3 ta oziq-ovqat do‘koni bor. Qo‘shni hududlardan ishchilarni jalb etyapmiz. Albatta, mahalla raisining mas‘uliyati katta. Ana shu vazifani to‘la‘do etish uchun ham imkoniyatlar eshigi keng ochildi. “Mahalla yetitilgi” jonimgiza oro kirdi. Bugun mahalla faollari bizdan kam mehnat qilmayapti. Avval bir kishining zimmasidagi vazifa endi yettita qasimgilandi.

Ochig‘i, ishimizni onashtirgan eng yaxshi loyiha bu turizm ko‘chasining ochilishi bo‘ldi. Mana shu bitta loyiha evaziga hamma ishli bo‘ldi. Aholining mehnat qilish, hunar o‘rganishga ishtiyoqi kuchaydi. Mahallamizda 2670 nafar aholi yashaydi. Turizm loyihasi tufayli mahallamiz ishsizlikdan xoli hududga aylandi. Shu ko‘rsatkichning o‘ziyoq turizm iqtisodiyotning drayveri ekanidan dalolat beradi.



Hakim Yo‘ldoshev olgan suratlar.

TURIZM KO‘CHASI bugun, kelajak va o‘tmish o‘rtasidagi ko‘prik

Gulbozorda bejiz turizm ko‘chasi tashkil etilgani yo‘q. Uning tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Xadra maydoni, Eski Juva va Chorsu orqali‘ida joylashgan bu hudud IX-XII asrlarda Binkat deb nomlangan. Binkat o‘z davrining taraqqiy etgan shahri bo‘lgan. U ikki qism — shahriston va rabotdan iborat edi. Shahristonda hukmdor qarorgohi, saroylar, zodagonlar uylari, ma‘muriy binolar qad ko‘targan. Rabot esa savdo va hunarmandlar rastalari, karvonsaroylar, bozor va mahallalardan iborat edi. Uning ikkita darvozasi bo‘lgan. Mahallaning nomi ham XV asrga borib taqaladi.

Mahallada har bir soha vakili topiladi. Bugun Gulbozorda davlat ishida ishlaydiganlar ham talaygina. Shu bilan birga, hunarmandlar, san‘atkorlar, tabiblar sulolalari ham bor. Ya‘ni bitta shahar obod bo‘lishi uchun qaysi kasb egasi

kerak bo‘lgan bo‘lsa, bugun ularning avlodlari bobolaridan qolgan sinch devorli, naqshinkor yog‘och darvozali uylarda yashab kelmoqda. Ular ikki asrlik tarixga ega.

— Ganchkorlikni otamdan o‘rganganman, — deydi hunarmand-usta Sardor Niyozov. — O‘n ikki yoshimdan shu hunar bilan shug‘ullanaman, yigirma yillik tajribam bor. Oilamni shu hunar orqasidan, halol mehnat bilan boqayman. Dastlab shahrimizdagi Abulqosim madrasasida ish boshlagan edim, keyinchalik mahallamizda ustaxona ochdim. Endi imkoniyatlar yanada yaxshilandi, turizm ko‘chasi ochildi. Ostonamizni do‘koncha qilib oldik. Darvozaxonaga ishlarimdan namunalari osib qo‘yganman. O‘tgan-qaytgan turistlar sotib olishi mumkin. Ko‘chamizdan Chorsu bozoriga o‘tilgani bois, bu yerda har doim sayyohlar bo‘ladi.

Darhaqiqat, mahallada ustoz-shogirdlik an‘anasi azaldan davom etib kelgan. Yaqin o‘tmishda bu halqada uzilish kuzatilgan. Ya‘ni kam sonli hunarmandlarga o‘z ustaxonalarini saqlab qoldi. Yangi loyiha sabab qadimiy an‘anani qaytarish imkoniyati tug‘ildi. Gulbozor hunarmandlari yana yoshlarni yoniga olib, shogird tayyorlashga kirishgan.

Shu o‘rinda bir mulohaza. Mahallada mulla To‘g‘chi Toshmuhammedov, Orif Alimahsumov, Nabi G‘aniyev kabi san‘atdagi kamol topgan. Bir zamonlar Mosh tabib, deya dog taratgan tabibning avlodlari hozir ham Gulbozorda yashaydi. Demak, bu mahalla ahli o‘zligini doim saqlab, qadriyatlarini asrab kelgan. Bu hunarmandlarga shogird tushadigan yoshlar ana shu ezigu an‘anani davom ettira olishidan dalolat aslida. Zero, xalqimiz oqqan daryo oqmay qolmas, deya bejiz aytmagan.

Ta‘kidlash kerak, Gulbozorga yilning barcha mavsumida xorijlik sayyohlar ko‘p keladi. Shuni hisobga olib, mahalla turizm xizmatlariga ixtisoslashtirildi. Xususan, barcha kommunikatsiya tarmoqlari yer ostidan o‘tkazildi. O‘ymakor ustunli katta ayvon, unga yaqin joyda hovuz barpo etildi. Mahalla idorasining birinchi qavatida milliy kashtachilik bilan shug‘ullanadigan hunarmandlar faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari, Hunarmandlar uyushmasi yurtimizning turli joylaridan tayyor mahsulotlarni olib keladi va shu yeming o‘zida tadbirkorlarga tarqatadi. Shu orqali turizm ko‘chasidagi tadbirkorlar boshqa yurtodshalarimizning qo‘l mehnati bo‘lgan hunarmandchilik mahsulotlarini sotib foyda ko‘radi. Bozorning obodligi, yurtning farovonligiga shu zaylda xizmat qilindi.

— Prezidentimiz mahallamizga tashrifi chog‘ida yana bir qator yangiliklarni yetkazdi,

— deydi M.Tojiyeva. — Masalan, mas‘ullarga hunarmandlar uchun zarur xomashyoni eng yaqin joydan sotib olish imkonini yaratish topshirig‘ini berdi. Hunarmandlarga doim ham xorijdan mahsulot sotib olish imkoni bo‘lmaydi. Shu bois, mazkur topshiriq ishlarimiz yanada jadal tus olishiga zamin bo‘ladi.

Bundan tashqari, Ko‘kaldosh madrasasining tepa qismi, masjid yonidagi katta maydonga so‘rilar o‘rnatilgan. Bu yerda oshpazlar ovqat rastalarini tashkil etadi. Sayyohlar chorpyalarda o‘tirib, ochiq osmon ostida tayyorlangan taomlarni tanovul qiladi. Tandirdan endi uzilgan non sotib oladi.

Mazkur loyiha ham bejiz qilingani yo‘q. Mahallaning bir guruh aholisi taom pishirib, shu yerda sotib kelgan. Yigirma qadam narida esa Chorsu bozori. Tabiiyki, odam gavjum, savdo ham shunga yarasha bo‘ladi. Qolaversa, Prezident tashabbusi bilan endilikda mahallada sumalak va nisholda kabi milliy taomlar ham yil davomida tayyorlanadigan bo‘ldi.

Mahallada uch yulduzli mehmonxona ham bunyod etilyapti. Sayyohlar oqimi oshishi uchun esa hudud xavfsiz bo‘lishi shart. Zero, xavfsizlik turizmning jozibadorligini oshiradigan eng birinchi tamoyillardan. Shu bois, mahallada “xavfsiz hudud” tizimi joriy etilgan. Kuzatuv kameralari, xavfsizlikka mas‘ul xodimlar muttassil faoliyat olib bormoqda. Bundan sayyohlikni rivojlantirish orqali o‘tmish qadriyatlarini, an‘analarini saqlab qolish, iqtisodiy barqaror, ma‘nan yuksak bo‘lgan kelajak avlodni tarbiyalash olib keladi. Shu ma‘noda, turizm ko‘chasi bugun, kelajak va o‘tmish o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini o‘taydi.

Qadim Shoshning qadriyatlarini bilan tanishmoqni istasangiz, xalqimizning o‘ziga xos urf-odatlarini ko‘rib, guvohi bo‘lishga qiziqsangiz, Gulbozorga bemalol kelavering. Aytgancha, saratonning chillasidami, qishning o‘rtasidami sumalak yeyishni istasangiz ham Gulbozorni izlab yo‘lga chiqing. Illo, sayyohlikning halqasiga qo‘shiladigan mahalla shu kabi kichik, ammo muhim ahamiyatga ega qadriyatlarini tiklamoqda. Agar shaharning sershovqin ko‘chalaridan bezangiz, ko‘nglingiz xotirjamlik tusab, chin insoniy munosabatlarni his etmoqchi bo‘lsangiz ham Gulbozorga kelasiz.

Boboravshan G‘OZIDDINOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Nuqtayi nazar

BMT Savdo va rivojlanish tashkiloti ma'lumotida 2023-yilda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning global oqimi 1,37 trillion dollarni tashkil etib, avvalgi yilga nisbatan 12 foiz qisqargani qayd etilgan. Global investitsiyalar o'sishiga ta'sir etuvchi omillar sifatida asosan, jahonda kechayotgan umumiy iqtisodiy noaniqliklar, ko'pgina davlatlarda foiz stavkalari oshishi, shuningdek, rivojlangan davlatlarda moliyaviy oqimlar va amaliyotlarning qisqarishi keltirilgan.



Qobil TURSUNOV,
Oliy Majlis Senatining
Budjet va iqtisodiy islohotlar
masalalari qo'mitasi raisi
o'rinbosari

Yevropa davlatlarida ham to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning oqimi o'tgan yilga nisbatan 18 foiz qisqargan. Sohaviy trendlarning yetkazib berish zanjirini qayta qurish zarurati mavjudligi sabab elektrotexnika, avtomobilsozlik va mashinasozlikda loyihalar soni o'sgan.

2020 va 2021-yildagi ko'tarilishlardan so'ng raqamli texnologiyalarga yo'naltiriladigan investitsiyalar oqimi o'zgarishsiz qoldi. Energetika sohasida yangi loyihalar soni barqarorlashdi.

Xorijiy moliyaviy qo'yilmalar oqimi Yevropa Ittifoqi (Lyuksemburg va Niderlandiya hisobiga) davlatlarida 2022-yildagi 150 milliard dollarlik salbiy ko'rsatkichdan 141 milliard dollarlik ijobiy

IQTISODIY BUHRONLAR VA INVESTITSIYA

ko'rsatkichga chiqdi. Shu ikki hududni hisobga olmaganda, YI davlatlarida ham xorijiy moliyaviy qo'yilmalar oqimi 23 foiz qisqarganini kuzatish mumkin.

Dunyoning boshqa rivojlangan mamlakatlarida ham aynan shu kabi holat saqlanib qolmoqda. Shimoliy Amerikada o'sish kuzatilmagan, boshqa hududlarda esa pasaygan. Jumladan, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning yirik o'zlashtiruvchisi hisoblangan AQSHda 2023-yilda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi 3 foiz kamaydi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda investitsiyalar hajmi 9 foiz, jumladan, rivojlanayotgan Osiyo mamlakatlarida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi 12 foiz qisqardi. Afrikada bu ko'rsatkich 1 foizni tashkil etdi. Lotin Amerikasi va Karib havzasi mamlakatlarida esa o'sish barqarorligicha qoldi.

Xitoyda 2023-yilda o'ziga xos bo'lmagan holat — to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi 6 foiz, Hindistonda 47 foiz, ASEAN mamlakatlarida 16 foiz ozayishi kuzatildi. Birlashgan Arab Amirliklarida investitsiyalar hajmining 28 foiz o'sishi hisobiga G'arbiy Osiyo mamlakatlarida barqarorlik saqlanib qoldi. Saudiya Arabistonida yangi loyihalar soni 63 foiz ortdi.

2022-yilda rivojlanayotgan mamlakatlarda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish sohasida xalqaro investitsiya oqimlari oshdi. Xususan, infratuzilma, energetika, suv ta'minoti, sanitariya, agrosanoat tarmog'i, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarda loyihalar soni o'sdi.

Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun ayni paytda talab etiladigan 4 trillion dollardan ortiq investitsiya mablag'larining yetishmasligi mazkur yo'nalishda taqchilik mavjudligini va u hamon o'sishda davom etayotganini ko'rsatadi. Bu rivojlanayotgan mamlakatlarning energetika sohasiga investitsiya jalb qilishni qo'llab-quvvatlash ehtiyoji zarurat ekanini anglatadi.

Xo'sh, investitsiyalar jalb etish bo'yicha mamlakatimizda qanday ishlar amalga oshirilmoqda? Oldimizda yana qanday ustuvor vazifalar turibdi?

Jahon miqyosida kuzatilayotgan iqtisodiy girdoblar davrida O'zbekiston barqaror iqtisodiy o'sishga erishayotgan davlatlardan biri. Mamlakatda amalga oshirilgan izchil islohotlar, biznes yuritish uchun yaratilgan qulay sharoitlar, jumladan, imtiyoz va preferensiyalar, investor huquqlarining kafolatlangani mahalliy va xorijiy sarmoyadorlar qiziqishini tobora oshirmoqda.

BMT Savdo va rivojlanish tashkiloti ma'lumotida O'zbekistonda 2016-2023-yillarda Yevroosiyo mamlakatlari ichida to'g'ridan

to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda sezilarli darajada, ya'ni 12 foizdan 20 foizga o'sishga erishilgani qayd etilgan.

Ma'lumki, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi mamlakat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishda o'tirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqildi. Unda barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromad o'rtaqchadan yuqori mamlakatlar qatoridan o'rin olish, aholi talabi va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish, qulay ekologik sharoitni yaratish, xalq xizmatidagi adolatli, zamonaviy davlatni barpo etish, uning suvereniteti hamda xavfsizligini kafolatli ta'minlash kabi asosiy g'oyalar o'z ifodasini topgan.

Xalqaro tahlilchilarning e'tirofi etishicha, bu g'oyalar BMTning barqaror rivojlanish maqsadlariga uyg'unligi bilan ham alohida ahamiyatga ega.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti hajmini 160 milliard dollarga va aholi jon boshiga



daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish, yurtimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish, jumladan, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarda umumiy qiymati 150 milliard dollarlik 500 dan ziyod strategik loyihalarining manzilli ro'yxatini shakllantirish va tarmoq jadvalarini ishlab chiqish kabi maqsadlar belgilangan.

Bu maqsadlarga nafaqat ichki bozordagi ijobiy o'zgarishlar, balki ichki bozorni harakatga keltiruvchi muhim omillardan hisoblangan

xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish va eksportni ko'paytirish asosida erishiladi.

So'nggi olti yilda mamlakatimizga xorijdan qariyb 50 milliard dollar investitsiya jalb qilindi. Bu davrda sanoatga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 7 barobar oshdi yoki so'nggi uch yilda xorijdan 14 milliard dollarlik asbob-uskunalar olib kelindi.

2022-yil oxirida 2,5 milliard dollarlik to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilingan bo'lsa, 2023-yilda mamlakatimiz investitsiyalar jalb qiluvchi importchi MDH davlatlari orasida Qozog'istondan (27,2 foiz) keyingi ikkinchi pog'onani (19,8 foiz) egalladi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari, asosan, O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasida o'zaro to'g'ridan to'g'ri chel el investitsiyalarining hajmi 2023-yilga kelib, 2016-yilga nisbatan qariyb ikki barobar o'sdi.

2023-yilda mamlakatimizda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 352,1

trillion so'mga yetdi. Shundan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlar ulushi 53,4 foizga yetdi. O'zlashtirilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmida ilg'or davlatlar hisssasi, jumladan, Xitoy 25,6 foiz, Rossiya 13,4, Saudiya Arabistoni 7,9, Turkiya 6,4, Birlashgan Arab Amirliklari 5,8 hamda Germaniya 4,3 foizni tashkil qildi.

2023-yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 2019-yilga nisbatan deyarli ikki marotaba o'sdi.

2023-yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 2019-yilga nisbatan deyarli ikki marotaba o'sdi.

O'tgan yil yakuni bilan jami 16 milliard dollardan ziyod asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirildi, bu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan 1,5 barobar ko'pdir. Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 53,4 foizni tashkil etdi.

To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 94,5 trillion so'mni, yoki jamiga nisbatan 50,3 foizni va mos ravishda xorijiy kreditlar 93,4 trillion so'mni yoki 49,4 foizni tashkil etdi.

Davlat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan 21,2 trillion so'm investitsiya o'zlashtirilib, 2022-yilga nisbatan 130,3 foizga yetdi. Xususan, janubiy Qoraqalpog'istonda suv resurslarini boshqarishni yaxshilash, texnologik qurilmalarni modernizatsiya qilish va aloqa tizimini kengaytirish, quvvati 32 megavatt bo'lgan ikkita gaz turbina qurilmalarini qurish, umumiy quvvati 900 megavattidan kam bo'lgan navbatdagi ikkita bug-gaz turbinasini qurish bilan "Talimarjon" IESni kengaytirish hamda tabiiy gaz nazorati hisobining avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish investitsiya loyihalari amalga oshirildi.

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich va o'sish sur'atlari to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobiga to'g'ri kelib, 2022-yilga nisbatan qariyb ikki barobar ortdi. Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami investitsiyalardagi ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Sirdaryo hamda Buxoro viloyatlariga to'g'ri kelib, mos ravishda 81,6 va 64,3 foizni tashkil etdi.

To'g'ridan to'g'ri va kafolatlanmagan 100,6 trillion so'mlik xorijiy kreditlar hisobidan yirik loyihalar amalga oshirildi. Jumladan, Sirdaryo viloyatida quvvati 1500 megavatt bo'lgan yangi elektr stansiyasini qurish, 2021-2025-yillarda respublika neft-gaz hududlarida geologiya-qidiruv ishlarini olib borish, Toshkent viloyatida "Yoshlik-1" konini o'zlashtirish, 2020-2030-yillarda neft qazib chiqarish hajmlarini oshirish dasturini bajarish, Buxoro viloyatida quvvati 500 megavatt bo'lgan quyosh elektr stansiyasini, Surxondaryo viloyatida gaz-kimyo kompleksini qurish, 2017-2023-yillarda uglevodorod xomashyosi qazib chiqarish hajmini ko'paytirish bo'yicha dasturi amalga oshirish hamda Samarqand viloyatida mineral o'g'itlar ishlab chiqarish kompleksini tashkil etish loyihalaridir.

Asosiy kapitalga ajratilgan investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida ishlab chiqarish sanoati yetakchilik

qilayotgani muhim ahamiyat kasb etadi. Jami moliyalashtirish manbalari hisobidan kiritilgan investitsiyalarning 100,6 trillion so'mi yoki 28,6 foizi yangi avtomobil modellari, texnik gaz (SO₂), mineral o'g'itlar ishlab chiqarish, sement ishlab chiqarishni kengaytirish, paxta to'qimachilik va agroklasterlar tashkil etish kabi yirik investitsiya loyihalarini o'zlashtirishga jalb qilingan.

Aholi jon boshiga hisoblangan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ko'rsatkich Navoiy viloyatida 24,3 million so'm, Toshkent shahrida 22,6 million so'm, Sirdaryo viloyatida 16,9 million so'm miqdorida qayd etildi.

Davlatimiz rahbari joriy yil boshida investitsiyalarni jalb etish borasida 2023-yilda amalga oshirilgan ishlar hamda 2024-yilda investitsiya siyosatini yuritish bilan bog'liq vazifalar yuzasidan mas'ul vazirlik va idoralar taqdimoti bilan tanishdi.

Amalga oshirilgan ishlar tahlil qilinayotgan, joriy yilda xorijiy investitsiyalar hajmini yanada ko'paytirish zarurligi qayd etildi. Bunda asosiy e'tiborni elektrotexnika, mashinasozlik, qurilish materiallari, farmatsevtika, to'qimachilik va charm tarmoqlariga qaratish, "yashil energetika"ni rivojlantirish zarurligi ta'kidlandi.

Yirik investorlar bilan manzilli ishlash, investitsiyalarni jalb qilishda iqtisodiy diplomatiyani va chet eldagi diplomatik vakolatxonalar ishtirokini kuchaytirish muhimligi alohida qayd etildi.

Yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirishda hududlardagi maxsus zonalaridan hamda sanoat kooperatsiyasi imkoniyatlaridan keng foydalanish orqali qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish zarurligi ko'rsatib berildi. Tarmoq va hududlar rahbarlari investitsiya masalalarini hal etishda sanoat tarmoqlari bilan yaqindan ishlashi, asosiy e'tiborni hududlarda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, yangi ish o'rinlarini ko'paytirishga qaratishi shartligi aytib o'tildi.

Xalqaro moliya institutlari mablag'laridan samarali foydalanish va ularni o'z vaqtida o'zlashtirish, ushbu mablag'larni ustuvor ravishda ijtimoiy infratuzilma hamda suv xo'jaligi loyihalariga yo'naltirish zarurligi ta'kidlandi. Shuningdek, joriy yilda grant mablag'larini jalb qilishni faollashtirib, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, sog'liqni saqlash, oliy ta'lim, fan va innovatsiya sohalarida xorijiy hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkoriikni kengaytirish yuzasidan muhim vazifalar belgilab berildi.

Yangicha yondashuvlar

2008-yildan buyon mahalla tizimida ishlab kelayotgan Nargiza Elmurodovani mahalla-ko'y "rais bobo" deb chaqirishganida dastlab iymandi. Ayol kishini ham hech "rais bobo" derkanmi? Bir oz jahli ham chiqdi. Erish tuyuldi. O'zini ko'ziga ham solib ko'rdi. Keyinchalik o'rganib ketdi. El hurmatlab, ishdagi erkaklarcha shijoatini shunday baholabdimi, ko'ngil to'q. Mahalla raisi aholining eng yaqin hamkori. Chunki xonadonlardagi farovonlik ham, notinchlik ham ko'pincha raisning aralashuvi bilan ijobiy tomonga hal etiladi.

Joriy yilda Prezidentimizning 22-mart — "Mahalla tizimi xodimlari kuni munosabati bilan bir guruh yurtdoshlarimizni mukofotlash to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, Termiz tumanidagi "Jo'yangal" mahalla fuqarolar yig'ini raisi

Nargiza Elmurodova "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi. Buni eshitib quvonchdan "rais bobo" ko'ziga yosh oldi. Uning uzoq yillik faoliyatidan rozi bo'lib olqishlayotgan jo'yjagalliklarning yuz-ko'zida ham quvonchni ko'rish mumkin edi. Zero, aholining o'z mehnati ortidan qadr topishida mahallaga bosh bo'ladigan raisda gap ko'p.

Nargiza Elmurodova aholi daromadlarini oshirish bo'yicha "Sayxunobod tajribasi" — davlat uy xo'jaliklariga o'z imkoniyatlarini to'liq ishga solishga ko'maklashish tamoyilini keng ommalashtirish tashabbusi ilgari surilganida xursand bo'ldi. Belni mahkam bog'lab, ishga kirishdi.

Jo'yjag'al mahallasi Afg'oniston bilan chegaradosh hududda joylashgan. Drayveri asosan,

dehqonchilik, chorvachilik va parrandachilik bo'lgan Jo'yjag'alda 3120 kishi yashaydi. Tomorqadan unumli foydalanish maqsadida Sarvinov Rajabova 4 sotix issiqxona qurib, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirib bormoqda. Mahalla raisi kelib, boshqalarga ham amaliy ishlarni o'rgatishni so'raganida bajonidirozi bo'ldi.

— Mahallamiz namunali sanaladi. Bir-birimiz bilan ahil-inoqimiz, "yettilik" faoliyati yo'lga qo'yilgani aholi faolligini yanada oshirdi. "Sayxunobod tajribasi"ni ommalashtirish bizda ancha oson kechadi, deb o'ylayman, — deydi mahalla raisi.

Dehqonchilik hadisini olgan va undan daromad ko'rgan borki, hatto bir parcha yerga ham umid bilan urug' tashlaydi, nihol qadaydi. Ayni shu kunlarda dalalarda ish qizigan, yer bilan tillashuvchi mirishkorlarning yumushi ko'paygan.

Yo'lingiz tushib, tog'li Boysun tomonlarga ham borib qolsangiz, albatta, Tuzbozor mahallasiga bir kirib o'ting. Bu yerda gulchilikni daromad manbasiga aylantirgan insonlar ko'p. Yoshu qari bo'sh vaqt topdimi, tomorqasida mehnat qiladi. 75 yoshni qarshilagan Qudratillo Mamatqulovning ro'zg'ori to'kin, farovon va buning boisi shu hudud ahliga ma'lum. Mazkur xonadon vakillari yaxshi yashash uchun imkoniyatni, avvalo, ichkaridan qidirgan, tasarrufidagi tomorqadan oqilona foydalangan. Har mavsumda oila byudjetiga kelayotgan daromad ham shu sa'y-harakat ortidan.

— Boysun tog'li hudud. Issiqxonachilik avvallari qiyin tuyulardi. Ishning ko'zini bilsangiz, toshda ham gul undirish mumkin ekan. Tuzbozorliklar hozir chetdan ish izlamay, kichik tomorqasidan million-million so'm foyda olmoqda, — deydi Qudratillo bobo.

— Gulchilik bilan shug'ullanib ham boyish mumkinmi, deysizsa, albatta, deb javob bergan bo'laridim, — deydi shu mahallada yashovchi Faxriddin Ro'ziyev.

“Sayxunobod tajribasi”

SURXONDARYODA HAM OMMALASHMOQDA



Uning aytishicha, har yili mavsumda sotadigan gullari orasida bahosi 100-150 ming so'mliklari ham bor. Albatta, sotilgan gullarning urug'idan yana ko'chat yetishtirib, ko'paytiriladi. Lekin bu biroz qiyin. Buning uchun bog'bondan alohida mehr va e'tibor talab etiladi. Darvoqe, ushbu issiqxonadagi gullar turi 20 xildan oshadi.

Haqiqatan, boysunlik bobodehqonlar unumdor tuproq, hosildor yerning har qarichidan samarali foydalanishga odatlangan. Ular ob-havoning inqilbiga ham qarab o'tirmaydi. Sabr bilan mehnat qiladi, har mavsum saxovatini qadrlaydi. Beminnat zahmati ila nafaqat o'zi, balki el ro'zg'orini but, dasturxonini to'kis qiladi.

Jarqo'rg'on tumanida tomorqachilikda o'ziga xos maktab yaratib, yaxshi daromad topayotgan oilalar juda ko'p. Jumladan, Avlod, Oqqo'rg'on, Qorayog'och singari mahallalardagi qator oilalar katta dekkina yerdan ham samarali foydalanadi.

Viloyatning shimoliy tumanlarida hali bahorgi yumushlarga tayyorgarlik ko'rilayotgan bir paytda bu mahallalar aholisi ijaraga olingan yer va tomorqasidagi karam, lavlagi yoki kartoshkasini bozorga chiqarishga ulguradi. Birgina misol. Qorayog'och mahallasida bundan uch yil oldin o'zini o'zi band qilishi, daromad olishi uchun yer maydonlari aholiga ajratib berilgan edi. Ushbu yerdan samarali foydalanib kelayotgan dehqonlardan biri To'ra Normurodov kuni kecha joriy mavsumdagi birinchi bo'sh yig'ib oldi.

Muzrabot tumanida 37 ta mahalladagi 21 mingdan ziyod aholi xonadoni ixtiyorida 4 ming gektarga yaqin ekin maydoni mavjud. Joriy yilda 1600 gektardan ziyod ertaki, 2200 gektarga yaqin takroriy ekin hamda 3000 gektardan ortiq maydonda to'qsonbosti sabzavot ekinlari ekilishi rejalashtirilgan.

Tumandagi Mehnatobod mahallasida yashovchi Murodilla Panjiyev 30 sotix tomorqaga to'qsonbosti piyoz ekan.

Mehnatobod mahallasi piyoz yetishtirishga ixtisoslashgan. Shu bois, mahalliy aholi bu ishning hadisini olgan. Endilikda "Bir mahalla — bir mahsulot" tamoyili asosida yo'lga qo'yilgan tashabbuslar "Sayxunobod tajribasi" asosida yanada rivoj topadi.

Denov tumani Ozod mahallasida yashovchi Sarvara Abdumurodova uy sharoitida qo'ziqorin yetishtiradi. Uning daromadi yil sayin ortib boryapti.

— Qo'ziqorin yetishtirish uchun katta sarmoya, alohida joy va uskuna zarur emas. U nam va salqin havoni yoqtiradi. Bu jihatlarni yaxshi o'rgangach, uy yerto'lasida qo'ziqorin parvarishini boshlab yubordim. — deydi u. — Bilasizmi, turmush o'trog'im xorijga ketib ishlashini aytganida, keling, o'zimizda ish boshlaylik, sharoit bor-ku, deganimda unamagandi. Men esa tavakkal qilib, uy yerto'lasida qo'ziqorin parvarishlashni yo'lga qo'ydim. Hozir qo'ziqorinning kilosini 30-35 ming so'mdan sotayman. Qizig'i, hozir men ko'proq daromad topayman. Turmush o'trog'im kelishi bilan ishini yanada kengaytirmoqchimi.

Tadbirkor ayolning aytishicha, uyda qo'ziqorin yetishtirish qiyin emas. Bu faoliyat ayollarga juda mos ish. Eng muhimi, undan keladigan daromad yuqori. Sarflagan bir so'mingiz uch so'm bo'lib o'zingizga qaytadi.

Qo'ziqorin go'shti o'rmini bosadigan, turli kasalliklarga shifo ne'mat. Bu mahsulotga ichki bozorlarimizda talab yuqori. Shu bois, Sarvara opaning uyidan xaridorlar izi uzilmaydi. Bugungi kunda u yetishtirayotgan qo'ziqorin qo'shni viloyatlarga ham yetkazib berilyapti. "Mahalla yetitiligi", sektor rahbarlarining ta'kidlashicha, mazkur xonadon uy sharoitida qo'ziqorin yetishtirish bilan shug'ullanayotgan qaldirg'och oila sanaladi. Qiziqchilarga endi Sarvara Abdumurodovaning ko'magi, maslahati asqatishi tayin.

Ma'lumotlarga ko'ra, Surxondaryo viloyatida tomorqa yer egalariining 49,5 ming gektar ekin maydoni bo'lib, 42,4 ming gektarga joriy yil hosili uchun 2023-yilning kuz oylarida to'qsonbosti ekinlar ekilgan. Ulardan 2024-yilning mart-may oylarida jami 782,5 ming tonna hosil yig'ib olish rejalashtirilgan. Shuning 548,5 ming tonnasi o'z iste'moli va ichki bozorga, 234 ming tonnasi esa eksportga yo'naltiriladi.

Sarvar TO'RAYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri





www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Ilmiy tadqiqot muassasalarida



BUTUN KOINOT ILM-FAN TILIDA YOZILGAN YAXLIT MO‘JIZA

*Bilimni buyuk, o‘quvni ulug‘ bil,
Bu ikkisi tanlangan bandasini ulug‘laydi.
Zakovat qayerda bo‘lsa, ulug‘lik bo‘ladi,
Bilim kimda bo‘lsa buyuklik oladi.*

Ulug‘ mutafakkir Yusuf Xos Hojibning bu xulosaga kelishi ham o‘z-o‘zidan bo‘lmagan. Olim turli davrlarni o‘rgangan, qayerdagi fan rivojiga, ilm ahliga e’tibor qaratilgan bo‘lsa, o‘sha yer taraqqiy etganidan shunday to‘xtamga kelgan bo‘lsa, ne ajab. Haqiqatan, ilm-fan qadrlangan, olimlar mehnati munosib taqdirlangan, qadri va qaddi tiklab qo‘yilgan yurtida yuksak taraqqiyotga erishiladi, insonlar baxtiyor hayot kechiradi.

Risolat MADIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Ilm-fan rivojisi mamlakatda yuksak taraqqiyotga erishib bo‘lmaydigan ayon haqiqat. Buni teran anglagan davlatimiz rahbari Prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridanoq ilm-fan rivojiga alohida e’tibor qaratish zarurati kun tartibiga qo‘ydi. 2017-yilning 30-dekabr kuni mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyandalari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda davlatimiz rahbari iqtisodiyotimizning barcha sohalar taraqqiyotida ilm-fanning o‘rni, ahamiyati g‘oyat katta ekanini, bu borada davlatimiz birinchi galda Fanlar akademiyasi va olimlarga suyanishini, fan va ishlab chiqarish hamkorligi bugun nihoyatda dolzarbligini alohida ta’kidladi. “Mamlakatimizda yuqori salohiyatga ega, jahon miqyosida e’tirof etilgan olimlar ko‘p. Ular o‘z maktablarini yaratishi, shogirdlar tarbiyalashi lozim. Yosh avlodni salohiyatli kadrlar etib tarbiyalashdagi birinchi bosqich — maktab ta’limini tubdan takomillashtirish, ilmiy kadrlar va yuksak malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonining uzluksizligini ta’minlash zarur. Bu yo‘lda hech narsani ayamaymiz”, degan edi Prezidentimiz.

Darhaqiqat, o‘tgan yillarda olimlarning qadrini ko‘tarish, ilm-fanni yuksaltirish, ajdoddalarimiz yaratib ketgan boy ilmiy merosni o‘rganish, tadqiq etish va rivojlantirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirish borasida salmoqli ishlar qilinmoqda. Mazkur chora-tadbirlar akademik tadqiqotlarning kadrlar, moddiy-texnik hamda moliyaviy bazasini mustahkamlash, ularni mamlakatdagi dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va muhim ilmiy ishlamlarga yo‘naltirish imkonini bermog‘da.

2017-yilda uzoq yillik tanaffusdan so‘ng O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademikligiga saylov bo‘lib o‘tdi. Unda 32 nafar haqiqiy a‘zo (akademiklar) saylandi. Dunyodagi nufuzli ilmiy hamjamiyatlarda mustahkam o‘ringa ega olimlar akademiya a‘zoliciga tasdiqlandi.

O‘tgan yilning dekabr oyida 80 yilligi keng nishonlangan bo‘lib mo‘tabar dargoh shu munosabat bilan yana bir bor ilm-fan fidoyilarini kashf etdi. Mamlakatimiz ilm-fani nufuzini oshirishga munosib hissa qo‘shib kelayotgan bir guruh olimlar O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a‘zosi etib saylandi. Bu ham olimlarga, ilm-fan ahliga berilgan munosib baho bo‘ldi.

Bundan tashqari, Sharqshunoslik va Matematika institutlarining zamonaviy sharoitlarga ega yangi binolari foydalanishga topshirilgani ham ana shu e’tibor mahsuli. O‘simlik moddalarini kimyosini institutida Markaziy Osiyoda yagona bo‘lgan texnologiya asosida faoliyat yuritadigan dori vositalari substansiyalarini ishlab chiqaruvchi korxona tashkil etildi.

Zamonaviy ilmiy asbob-uskunalar sotib olindi va ularni samarali ishlatish maqsadida jamoaviy foydalanish markazlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Ilmiy ishlamlarning hayotga tatbiq etilayotgani ham ana shu e’tibor mahsulidir.

Natija nimalarda ko‘zga tashlanmoqda?

Ma’lum vaqt davomida turli sohalarga bo‘lib berib yuborilgan qator ilmiy muassasalarning Fanlar akademiyasi tizimiga qaytarilishi, yangi ilmiy dargohlar tashkil etilishi o‘z natijasini bera boshladi.

Akademiyaning qayta tiklangan Yadro fizikasi instituti ilmiy tadqiqot yadro reaktori

qayta ishga tushirildi. Bu uning “Tezlatgich” MCHJ va “Radiopreparat” DK ishlab chiqarish tashkilotlarida radioizotop mahsulotlar tayyorlash hajmini oshirdi. Natijada radioizotop mahsulotlarga mamlakat ehtiyojini to‘liq qondirish, valyutani tejash va mahsulot eksportini yo‘lga qo‘yish imkoniyati paydo bo‘ldi. Bugun bu ilmiy tadqiqot muassasasida yadro tibbiyoti rivoji uchun asos bo‘ladigan, millat salomatligi uchun xizmat qiladigan preparatlar ishlab chiqarilmoqda.

— 2020-yildan bir qator mahsulotlar GMP standart bo‘yicha amaliyotga tatbiq etilmoqda, — deydi Yadro fizikasi instituti direktori Ilhom Sodiqov. — Korxonada tibbiyot, biotexnologiya, qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalar uchun fosfor-32, fosfor-33, oltinugurt-35, temir-55, temir-59, molibden-99, yod-125, yod-131, samariy-153, lyutetsiy-177, oltin-198 va simob-203 kabi radionuklidlar asosida onkologik, kardiologik va endokrin kasalliklarni tashxislash hamda davolash uchun 60 dan ortiq radiofarmatsevtik preparat ishlab chiqariladi. Shuningdek, 10 dan ortiq yuqumli kasallikni aniqlashda qo‘llaniladigan noradioaktiv ekspress immun test tizimlari tayyorlanadi.

Lyutetsiy-177 radionuklidi asosida ishlatishga tayyor lyutetsiy-177 PSMA-617 preparati e’tiborga molik izlanishlar samarasidir. Lyutetsiy-177 PSMA-617 preparati prostata bezi saratoni va uning metastazalarini davolashda qo‘llanilib, shu sohada foydalanilayotgan preparatlar ichida eng samaralisi hisoblanadi va operativ muolajalarsiz 90-92 foizgacha davolanish imkonini bermog‘da. Uni mamlakatimiz klinikalarda qo‘llash borasida yaxshi natijalarga erishildi.



Mikrobiologiyada e’tiborga molik izlanishlar

Mikrobiologiya institutida sog‘lom o‘simliklar rizosferasidan ajratib olingan selluloza sintez qiluvchi mitseliyalzamburug‘ asosida “Fitobiosol” nomli mikrobiologik preparat yaratildi va O‘zbekiston Respublikasi patenti (IAP 07354) bilan himoyalandi. Import o‘rnini bosuvchi bu preparat qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorligi hamda kasalliklarga chidamliligini oshirish maqsadida ishlatiladi.

— Hosildorlikni 15-25 foiz oshirish imkonini beradi, bu esa katta dala maydonlarida yetishtiriladigan ekinlar (g‘o‘za, bug‘doy, sholi) uchun 5-8 sentnerni tashkil qiladi, — deydi Mikrobiologiya instituti direktori, akademik Qahramon

Davronov. — Kuzgi va bahorgi bug‘doy navlari uchun kleykovina miqdorini 2-5 foizga oshirish mumkin. Shu bilan birga, pestitsid va boshqa agrokimyoviy vositalarga sarflanadigan xarajatlarni kamaytiradi va tuproqni sog‘lomlashtiradi. Ushbu biopreparatdan bugungi kunda klasterlar, fermer xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari foydalanmoqda.

Shuningdek, farmatsevtika sohasiga oid izlanishlar natijasida “Stopangin” probiotik preparati yuqori nafas yo‘llari infeksiyalarini qo‘zg‘atuvchi mikroorganizmlarga qarshi kuchli faollikka ega laktobakteriya shtamlari asosida ishlab chiqilgan va u tonzilni kabi yallig‘lanish jarayonini keltirib chiqaruvchi patogen bakteriyalarning o‘shishini to‘xtatadi. Antibiotiklarga chidamli bakteriyalar ko‘payishining oldini oladi, yuqori nafas yo‘llarining mikroflorasini qayta tiklaydi.

E’tiborga molik izlanishlardan yana biri Rhodococcus ruber — 8/4/1 aktinobakteriya

O‘tgan yilning oxirida O‘zFAning 80 yillik yubileyi xalqaro miqyosda keng nishonlangani, unda dunyoning 14 mamlakatidan 100 dan ortiq taniqli olimlar kelgani, bir qator hamkorlik shartnomalari tuzilgani fikrimizga yana bir dalil bo‘la oladi.

Fizika-texnika institutida

— Oxirgi yillarda institutda havo, tuproq hamda suvda radioaktiv radon gazi konsentratsiyasi (hajmiy faolligi)ni onlayn rejimda o‘lchashga mo‘ljallangan o‘lchov vositasi — radonometr yaratildi, — deydi Fizika-texnika instituti direktori, fizika-matematika fanlari doktori, professor Husniddin Olimov. — 2021-yilda muassasa tarixida ilk bor milliy radonometrga O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi sertifikatini olindi. Hozirgacha institutda 12 ta radonometr



ishlab chiqildi. Bir nechtasi Seysmologiya institutining seysmik stansiyalarida o‘rnatish hamda Navoiy, Olmaliq kon-metallurgiya kombinatlariga shaxta va boshqa maxsus obyektlarda radon konsentratsiyasini nazorat qilish uchun yetkazib berildi.

Termoelektrik generator qurilmasi zavod va kombinatlarning texnologik jarayonlarida paydo bo‘ladigan chiqindi issiqlikni elektr energiyasiga aylantirishga mo‘ljallangan bo‘lib, zavod va kombinatlar texnologik jarayonlarining energiya samaradorligini oshirishga, elektr energiyasini tejashga imkoniyat yaratadi. Qurilma issiqlikdan elektr energiyasi ishlab chiqarishdan tashqari, issiq suv olish imkonini ham beradi.

Tadqiqotlar ilmiy markazida yangi avlod dori-darmonlari ishlab chiqariladi

Yurtimizda birinchi marta O‘simlik moddalarini kimyosini instituti huzurida xalqaro talablar asosida yangi dori substansiyalari ishlab chiqarish texnologiyasini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ilmiy-texnik markaz tashkil etilgani ham o‘ziga xos yangilik bo‘ldi. Bu yerda import o‘rnini bosuvchi va eksportga yo‘naltiriladigan dori-darmon ishlab chiqarish texnologiyalari



farmatsevtika korxonalariga beriladi.

Buning uchun olimlar fundamental tadqiqotlar asosida yangi innovatsion ishlamlarni joriy etish, yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish, mahalliy farmatsevtika korxonalarini dori moddalarini substansiyalari bilan ta’minlash, ishlab chiqarish quvvatini oshirish hamda xalqaro standartlarga muvofiq lashtirish kabi ishlarni olib boradi. Bugun markazda hosildorlikni bir necha barobar, eksport hajmini ikki barobar oshirish, shuningdek, boshqa bozorlarga chiqish uchun yangi imkoniyatlar yaratilmoqda.

Tadqiqotlar ilmiy markazi faoliyat boshlashi natijasida GLP standartlari amal qiladigan mamlakatlar tomonidan mahalliy olimlar ilmiy natijalarining o‘zaro tan olinishini yo‘lga qo‘yish rejalashtirilmoqda. Jarayonda xalqaro standartlariga javob beradigan yangi avlod dori-darmonlari ishlab chiqariladi. Markaz ishlamlarni Yevropa, MDH, Xitoy, Yaponiya va boshqa davlatlarda ro‘yxatdan o‘tkazishga ko‘maklashadi. Bu mamlakat iqtisodiyoti, aholi talabi uchun ham manfaatli. Gap shundaki, ilmiy texnologiyalarning xalqaro miqyosda tan olinishi mahalliy dori-darmonlarning eksport bozorini kengaytirib, iste’molchilarni past sifatli va xavfli dorilardan himoya qiladi.

Bu ayrim ilmiy muassasalar erishayotgan natijalardan bir misol edi. Akademiya olimlarining ilmiy ishlamlari bugun barcha sohada yangi ixtirolarga asos bo‘lyapti. Birgina tibbiyotni oladigan bo‘lsak, COVID-19, surunkali B va C hepatitlari, bir qancha virusli infeksiyalar, kardiometabolik o‘zgarishlarda avtomiyat yallig‘lanish holatlarini immunotashxislash usullari amaliyotga tatbiq etildi. Mahalliy o‘simliklar asosida yaratilgan etilikka yaqin original dorining o‘ndan ortig‘i hozir amaliyotda qo‘llanmoqda. Mahalliy mikroorganizmlar shtamlari asosida import o‘rnini bosuvchi qishloq xo‘jaligi va

farmatsevtika biopreparatlarini tajriba tariqasida ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

Matematika institutida nima yangilik?

— Institutda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar nazariy ahamiyatli bo‘lish bilan birga, amaliy jihatdan ham muhim salmoqqa ega, — deydi Matematika instituti direktori, O‘zbekiston Qahramoni Shavkat Ayupov. — Masalan, oxirga yillarda yurak-qon tomir kasalliklari oqibatlarini bashorat qiluvchi modellar ishlab chiqilib, ushbu modellar Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Toshkent viloyatidagi filiallari hamda Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida joriy etildi. Yangi dori vositalarini yaratish uchun mo‘ljallangan MolekulGen dasturlar paketi ham e’tiborga molik izlanishlarga misol bo‘la oladi. Parafreyzer, imlo tekshiruvchi, grammatik tahrir, xulosalovchi va nutqni matnga aylantirish kabi xizmatlarni o‘z ichiga oladigan muharirai.com platformasi ham ilmiy izlanishlar samarasidir. Sanoat mintaqalarida ekoholatni monitoring

Xalqaro hamkorlik

Hech bir mamlakat yakka o‘zi, boshqalar bilan hamkorlik qilmasdan rivojlanma olmaydi. Jumladan, ilm-fan sohasidagi yangiliklar bo‘lishilganda, baham ko‘rilganda taraqqiyotga xizmat qiladi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi ham qator mamlakatlar bilan o‘zaro hamkorlik qilib kelmog‘da. Misol uchun, UNESCO, MAGATE (Atom energiyasi xalqaro agentligi), MAAN (Fanlar akademiyalari xalqaro uyushmasi) va TWAS xalqaro tashkilotlari, Rossiya, Ukraina, Belarus va MDHning boshqa mamlakatlari, Xitoy, Janubiy Koreya Fanlar akademiyalari bilan samarali ijodiy hamkorlik o‘rnatilgan. Turli mamlakatlardagi nufuzli ilmiy dargohlar bilan ikki tomonlama manfaatli bitimlar tuzilgan. Bu ham yurtimiz olimlarining jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallayotganini tasdiqlaydi.

Dori-darmon ishlab chiqarish bo‘yicha O‘zbekiston — Xitoy markazi ochilib, qator institutlarda O‘zbekiston — Xitoy ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatmoqda.

2017-yilning noyabr oyida O‘zFA bilan Rossiyaning “Rosatom” davlat korporatsiyasi o‘rtasida yadro energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risida memorandum imzolandi. Janubiy Koreya bilan hamkorlik doirasida Maydanak observatoriyasida tarqoq yulduz g‘ujlari va yaqin galaktikalardagi faol jarayonlarni kuzatish maqsadida ellikdan ortiq tungi fotometrik kuzatuvlar olib borildi.

Hamkorlikning muhim yutug‘i o‘laroq, 2017-yilning may oyida yangi yulduz topilib, “SN 2017ein”, deb nomlandi.

2020-yilda O‘zbekiston Respublikasi bioxilma-xillik bo‘yicha Global axborot portali uyushmasi a‘zosi bo‘ldi. Shuningdek, Rossiyadagi Yadro tadqiqotlari birlashgan instituti a‘zoliciga qayta tiklandi.

O‘tgan yilning oxirida O‘zFAning 80 yillik yubileyi xalqaro miqyosda keng nishonlangani, unda dunyoning 14 mamlakatidan 100 dan ortiq taniqli olimlar kelgani, bir qator hamkorlik shartnomalari tuzilgani fikrimizga yana bir dalil bo‘la oladi.

Ilm-fan har sohada ustuvor

O‘zFA o‘z faoliyati davomida yuzlab atog‘li olim va akademiklarni tarbiyalab, nufuzli ilmiy maktablar yaratilishiga katta hissa qo‘shdi. Bugun esa ilm-fan yutuqlarini, yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilishda yetakchi ilmiy muassasaga aylandi. Zero, yaqin-yaqin gacha kashfiyotlarni hayotga tatbiq etish haqida gap ketsa, dunyoning rivojlangan mamlakatlarida bu borada amalga oshirilgan ishlarni misol qilib keltiradik. Endilikda ilm-fanning yurtimiz taraqqiyotidagi o‘mi ijtimoiy hayotimizning har bir sohasida ko‘zga tashlanmoqda.

Erta uchun muhim qadamlar bugundan boshlanadi. Bugungi izlanishlar yangi kashfiyot-u ixtirolarga zamin hozirlaydi, yurtimiz iqtisodiy yuksalishiga hissa qo‘shadi, millat sifatida qaddimiz rost bo‘lishiga poydevor yaratadi.

9-aprel — Amir Temur tavallud topgan kun



Bu yirik ibrat

Yangilanayotgan Oʻzbekistonning maʼnaviy qiyofasini yaratishda ulugʻ bobolarimizning ilmiy salohiyatini bugungi kunimizga tatbiq etadigan davr keldi. Masalan, Amir Temurning benazir oʻgʻitlaridan unumli foydalanib, uning maʼrifiy qarashlarini bugungi yosh avlod ongiga chuqurroq singdira olsak, zamondoshlarimiz ruhiy olamida yurtni sevish, milliy gʻurur, vatanparvarlik tuygʻulari yanada joʻsh urishi tabiiy.

Vatan eng kichik goʻshadan, oʻzing tugʻilib oʻsgan qadrdon yeringdan, ostonangdan boshlanadi. Aslida, vatan qalbda yashaydi! Bu yurtimizda egalik hissi, oʻzi tugʻilib oʻsgan makonga muhabbat tuygʻulari har bir qalbgacha kirib borayotganini koʻrsatadi. Shuni oʻylaganingda xayolimga qachonlardir, sal-kam yetti yuz yillar avval Sohbiqiron Amir Temur moʻgʻullar zulmidan parokanda boʻlib yotgan jabrdiyda ona yurtini birlashtirib, buyuk davlatimizga asos solgani, uni dunyoga koʻz-koʻz qilgani jonlanadi.

Xoʻsh, ulugʻ bobomiz yurtini oʻzi uchun bunyod etganmide? Yoʻq, albatta. Kelajakni oʻylab, biz avlodlari gʻamini yeb barpo etgan. U “Tuzuklar”ida **“Saltanat toʻnini kiygach, oʻz toʻshagimda rohatda uxlash huzur-halovatidan voz kechdim”**, deb yozganidek, ona yurti Turonga jonini fido qilgan darajada yashadi va ulkan davlat qurdi. Bu buyuk ibratdir, uning bahosi yillar oʻtgan sayin oshib boraveradi. Ha, Amir Temurning suronli hayoti, bosib oʻtgan yoʻli bir avlodlar uchun dasturulamali boʻlib qolaveradi.

Yangilanayotgan Oʻzbekistonimizda yangi-gacha qarashlar, yangi-gacha munosabatlar qaror topib bormoqda. Bu esa xalqimizning maʼnaviy salohiyati tobora yuksalayotganidan dalolat. Insonning maʼnaviy olamida Vatan degan tushuncha eng yuqori maqomda turmogʻi kerak. Vatanparvar odamni komillikka, ezigu ishlarga intilish kuchli va shiddatli boʻladi.

Amir Temur **“Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qatʼiy, tadbirkor va hushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir”** yoxud

“Shijoatli kishilarni doʻst tut, chunki Tangri taolo jasur kishilarni ardoqlaydi”, deganida naqadar haq edi. Prezidentimizning **“Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”**, degan daʼvati esa Amir Temur oʻgʻitlariga hamohang boʻlib jaranglab turibdi.

Mamlakatimizda maʼnaviy-maʼrifiy ishlarga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Buyuk bobomiz ham azmi qatʼiy deganda, shubhasiz, maʼnaviyati yuksak insonlarni nazarda tutgan. Oʻzbekistonimizning buyuk kelajagini ham ilmi yuksak, maʼnaviyati yuqori insonlarga qura oladi.

Uchinchi Renessansga poydevor qoʻyar ekamiz, maʼnaviyat va maʼrifat qoʻsh qanot boʻlib turibdi. Ilm-maʼrifat, kitobxonlik yuksak maʼnaviyat darajasiga koʻtarildi. Kitobga, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga eʼtibor yoshlarga kuch va shijoat bagʻishlamoqda. Oʻzingiz bir oʻylang, qaysi mamlakatda koʻp kitob oʻqiganga, kitobxon avlodga avtomobil sovgʻa qilingan? Bu faqat diyorimizda yoʻlga qoʻyilgan oʻziga xos maʼnaviy tashabbusdir. Bunday tashabbuslar oʻsib kelayotgan yosh avlodning ertangi yorugʻ kelajagi va komil insonlar boʻlib kamol topishini oʻylab qilinayotir.

Yurtimizda azal-azaldan yaxshilik va ezigulik yoʻlida xayrli ishlar amalga oshirilgan. Inson maʼnaviyati bosh omil hisoblangan. Fozil insonlar har yerda va har vaqt qadrlangan. Amir Temur aytadi: **“Qaysi mamlakatni zabt etgan yoki goʻshib olgan boʻlsam, oʻsha yerning obroʻ-eʼtiborlik kishilarini aziz tutdim; sayyidlari, ulamolari, fuzalo va mashoyixiga**

taʼzim bajo keltirdim va hurmatladim, ularga suyuqʻol, vazifalar berib, maoshlarini belgiladim; oʻsha viloyatning ulugʻlarini ogʻa-inilarimdek, yoshlari va bolalarini boʻlsa, oʻz farzandlarimdek koʻrdim”

Bundan anglashiladiki, chinakam yurtparvar, elparvar xoqon ana shunday ezigu ishlarga hamisha hozir-u nozir boʻlgan. Mamlakatimizda kechayotgan bugungi maʼnaviy oʻzgarishlarni ham xuddi shunga mengzash mumkin.

Davlatimiz rahbari **“Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot boʻlsa, uning joni va ruhi maʼnaviyatdir”**, deya bejiz taʼkidlamagan. Zero, yoshlar ongida milliy ruh va vatanparvarlik gʻoyasini yuksaltirish uchun maʼnaviyat suv va havodek zarur. Bu yoʻlda, eng avvalo, ziyolilarga, maʼnaviyat va maʼrifat xodimlariga, ijodkorlar qatlamiga tayanib ish koʻrilayotgani ham ana shundan dalolatdir.

Yurtimizda milliy gʻoya targʻiboti, maʼnaviy-maʼrifiy ishlar samaradorligini oshirish maqsadida **“Ijod”** jamoat fondi negizida



uqtirganidek, aynan hozir toʻgʻri soʻzli, toʻgʻri qalamli kishilar juda zarur.

Yurtimizda kechayotgan bugungi oʻzgarishlar, maʼnaviy-maʼrifiy sohadagi islohotlardan kutilgan ham qutlugʻ vazifalar yuklanadi. Fond faoliyatida transformatsiya ishlari amalga oshirildi. Navbatda fondning yangi konsepsiyasini ishlab chiqish lozim. Unda tariximizning oltin davri boʻlgan Amir Temur davri va tarixini teran oʻrganish, Sohbiqiron hayoti va shaxsini, bu ulkan umr mohiyatini toʻla, chuqur anglab yetish yoʻlida dastur tayyorlash lozim. Asosiy maqsad ushbu ulugʻ tarixni butun koʻrku salobati, mazmun-mohiyati bilan davstavval ertangi umidimiz boʻlgan yoshlarimiz, bagʻrikeng xalqimiz yuragiga joylashdan iboratdir. Hozir Amir Temurning maʼnaviy-maʼrifiy qarashlarini yanada kengroq, batafsil oʻrganib borish uchun maktablarda, oʻquv yurtlarida **“Sohbiqiron saboqlari”**, **“Amir Temur va yangi Oʻzbekiston”** darslari tashkil etilsa, ayni muddao boʻlur edi.

Albatta, masalani tegishli mutasaddi tashkilotlar bir oʻylab koʻrishi kerak. Shuningdek, xalqimizning oltin tarixi haqidagi haqiqatni keng yoyish niyatida mamlakatimiz shaharlarida, qishloq va mahallalarda, oliy oʻquv yurtlarida, maktab va litseylarda tizimli ravishda Sohbiqiron hayotiga, davri va tarixiga bagʻishlangan turli konferensiyalar, anjumanlar oʻtkazish, qiziqarli suhbatlar, mulotoqlar, uchrashuvlar uyushtirish, ularga taniqli adiblar, tushmunhos olimlarni jalb etmoq maqsadga muvofiqdir.

Amir Temurning gʻoyaviy yoʻnalishlari, tuzuklari, oʻgʻit va nasihatlari yangi Oʻzbekistonni barpo etish yoʻlidagi gʻoyaviy yoʻnalishlarga juda-juda hamohangdir. Axir oqqan daryo oqaveradi... Qaysi bir sohani olmaylik, barcha jabhalarda Sohbiqiron saboqlari aynan dasturulamaldek tuyuladi. Goʻyoki ulugʻ bobomiz ziyoli va ulamolimizga ilmu adab yoʻnalishidagi oʻgʻitlarni, tadbirkoru hunarmandlarga azmu shijoat va qatʼiylilik borasidagi pumaʼno nasihatlarni, harbiylarga temir intizom, mardlik va jasorat, fidoyilikka undovchi gʻoyalarni xuddi bugun yonimizda turib aytayotgandek tuyuladi.

Soʻzni muxtasar qilsak, **mamlakatimizning buyuk kelajagini Amir Temur aytganidek, azmi qatʼiylar, shijoat sohiblari, mard va olijanob insonlar quradi**. Biz barchamiz esa ana shu daʼvatlarga munosib boʻlishga intilaylik.

Ashurali BOYMUROD,
Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi aʼzosi

Adabiy hamkorlik – abadiy hamkorlik

Mahmud Koshgʻariyning **“Devonu lugʻotit-turk”** asari turkiy xalqlarning tarixi, tili, yashash tarzi, urf-odati haqida qimmatli maʼlumot beruvchi asosiy ishonchli manbadir.

U tilshunoslikning dastlabki ilmiy asari boʻlibgina qolmay, turkshunoslik tarixida yaratilgan asarlarning eng mukammali hisoblanadi. Shu bois, Mahmud Koshgʻariyning buyuk tilshunos va turkshunosligimizning asoschisi desak, adashmagan boʻlamiz.



Ozarbayjonlik ijodkor doʻstlarimiz **“Devonu lugʻotit-turk”** asari Ozarbayjon Milliy Fanlar akademiyasi (AMEA) Prezidiumi qarori bilan Tilshunoslik institutida 3 jildida nashrga tayyorlanayotgani haqida xabar berganida boshimiz koʻkka yetdi. Darhol bu xushxabar ortida turgan maʼlumotlarni izlashga kirishdik. Ayni kunda turkiy tilda soʻzlashuvchi xalqlar uchun qimmatli boʻlgan asarning 1-jildi nashrdan chiqqani maʼlum boʻldi. Nasimiyo nomidagi tilshunoslik instituti direktori, professor Nodir Mammadi rahbarligida chop etilgan kitobga Ozarbayjon Milliy Fanlar akademiyasi prezidenti, akademik Ios Habibbayli soʻzboshi yozgan.

Taniqli ozarbayjon olimasi Almaz Ulvi Binnatova bilan telefon orqali bogʻlanganimizda olimam **“Devonu lugʻotit-turk”**ni ilk bor arabchadan ozarbayjonga lugʻa-girgan tarjimon Xolid Said Xoʻjayevning hayoti va ijodini bir necha yillardan buyon oʻrganib kelayotganini aytadi.

—Olim oʻtgan asrning 30-yillarida Ozarbayjon Fanlar akademiyasida ishlagan, — deydi Almaz xonim. — Biroq **“Devonu lugʻotit-turk”**ni tarjima qilganlikda ayblanib, 1937-yilda **“aksilingilibiy-panturkistik tashkilot aʼzosi”** degan tamgʻa bilan otuvga hukm qilinadi. Ayblov jarayonida xavfsizlik xizmati xodimlari Xolid Saidning uyini tintuv qiladi, ammo devon topilmaydi. Shundan soʻng **“tarjima asar yoʻqolgan”** degan taxmin ilgari suriladi. XX asr turkiy xalqlar adabiy hayotida ulkan ishlar qilgan boʻlishiga qaramasdan, ilmiy-

ijodiy merosi hamon turkolog olimlar nazaridan chetda qolib kelayotgan bu tarjimon nomi hamisha qiziqtirgan. **“Sodiqlik burchi”** nomli maqolam matbuotda eʼlon qilgach, menga Xolid Saidning Kanadada yashovchi qizi Bahida xonimdan maktab keldi. Men uchun nihoyatda qadrl boʻlgan ushbu maktabda quyidagilar bitilgan edi:

“Otam haqidagi maqolangizni oʻqidim. Sizga minnatdorchilgimning chegarasi yoʻq. Adolat hukm surganidan soʻng koʻplab maqola va kitoblar nashr etildi. Ammo shuni aytishim kerakki, siz oʻz maqolangizda Xolid Said Xoʻjayev haqida batafsil va adolati soʻz yuritishga harakat qilgansiz. Buning uchun alohida tashakkur bildiraman. Hayotimning ushbu davrida siz meni doimo oʻylashga majbur qilgan va xatlarda koʻrsatilmagan daqiqalarni esga solganingizdan xursandman. Alloh umringizni uzoq qilsin, ilohim. Bilginki, Kanadada doim sizni duo qiluvchi Xolid Saidning qizi Bahida va uning nabirasi bor”.

Xolid Said haqidagi tasavvurlarimizni boyitish maqsadida oʻzbek adabiyotshunosi Marhob Qoʻchqorovanning **“Oʻtgan kunlar ozar tilida”** nomli maqolasi bilan tanishdik. Unda qayd

etilishicha, turkiyalik olimlar Mustaf Tokar va Ufuk Dengiz Ashchi hamkorlikda Anqarada 2006-yilda Xolid Said Xoʻjayevning **“Yangi alifbo yoʻllarida eski xotira va tuygʻularim”** kitobi qayta nashr qilinadi. Mazkur kitob nashriga **“Xolid Xoʻjayevning hayoti va asarlari”** maqolasi ilova etilgan, unda shunday deyiladi: **“Ahamiyatli olim boʻlishiga qaramasdan, Turkiyada, hatto bir umr yashagan yurti Ozarbayjonda ham shu kunga qadar hech tanilmagan, tadqiqotchilarning nazaridan chetda qolgan, yozilgan boʻlsa-da, juda oz, batafsil yoritilmagan Xolid Said Xoʻjayev, asli Oʻzbek turkidir”**.

Darhaqiqat, Xolid Said Xoʻjayev 1888-yili hozirgi Toshkent viloyatining Bayt-qoʻrgʻon qishlogʻida tugʻilgan. Maktab taʼlimidan soʻng, Toshkent madrasasida olti yil tahsil oladi. Madrasada arab va fors tillarini oʻrganadi. 1914-1918-yillari Istanbulda Adabiyot fakultetida oʻqiydi. 1918-yili tahsilni tugatib, ona yurtiga qaytadi. Bu paytda Okiyabr toʻntarishi voqealari boʻlayotgan davr edi. Shuning uchun Xolid Said Ozarbayjonga qaytib ketadi, maktabda oʻqituvchilik qiladi. Ammo bu yerda ham ichki ixtiloflar tufayli yana Toshkentga qaytadi. 1920-1922-yillar orasida Toshkentda ishlaydi. Sogʻligʻi toʻgʻri kelmagani uchun 1922-yil oktabrda Bokuga qaytadi. 1922-1926-yillarda Balaxan muhandislik fakultetida va Gusar texnik taʼlim maktabida oʻqituvchilik qiladi. Bokudagi samarqandlik harbiy askarlar yotoqli maktabida va Oʻzbekiston Konsul mehmonxonasida mudir lavozimida ishlaydi.

1926-1934-yillarda Ozarbayjon Yetuk oʻqituvchilar tayyorlash instituti va boshqa oʻquv

tashkilotlarida faoliyat yuritadi. 1934-yil sentabr oyidan professor Vali Hulufu yoʻllanmasi bilan Ozarbayjon Fanlar akademiyasining tilshunoslik boʻlimiga ishga qabul qilinadi, 1937-yil 3-iyul kuni hibsga olinadi.

Xolid Said 1926-yilda Bokuda tashkil etilgan **“Birinchii Turkologlar qurultoyi”**da ishtirok etib, alifbo, adabiy til masalalari haqida dadil fikrlar bildiradi. Uning manbalarda koʻrsatilgan kitoblariga nazar tashlasak, chindan ham turkiy tillar rivoji borasida koʻp va xoʻp qaygʻurgani ayon boʻladi. Ayniqsa, **“Yangi alifbo yoʻllarida eski xotira va tuygʻularim”** (Boku, 1929), **“Muxtasar uslubiyot”** (A.Tagʻizoda bilan hammualliflikda, Boku, 1933, 1934), **“Oʻtkan kunlar”** (Abdulla Qodiriyning **“Oʻtkan kunlar”** romanining ozarbayjon turkchasiga tarjimasi, Boku, 1928, 1929), **“Uslubiyot nazariyasi”** (yoʻqolgan), **“Turk tillarining tarixiy grammatikasi”** (yoʻqolgan), **“Devonu lugʻotit-turk”** (tarjima, yoʻqolgan), **“Chigʻatoy adabiyotidagi muhoziralari”** (nomaʼlum), **“Turkiston tarixining qisqa tarixi”** (nomaʼlum), **“Turk adabiyoti nazariyasi”** (nomaʼlum), **“Eron tillarining grammatikasi”** (nomaʼlum), **“Oʻrxun obidalarining tarjimasi”** kabi ilmiy maqola va tarjimalarida olimning turkiy tillarga boʻlgan asl mehri va ehtiromi namoyon boʻlgan.

Eʼtibor qilgan boʻlsangiz, yuqorida keltirilgan manbada **“Devonu lugʻotit-turk”** asarining ozarbayjoncha tarjimasi yoʻqolgan, deyilgan. Ayni paytda ushbu tarjimaning topilgani chindan ham katta voqeadir. Oradan 86 yil oʻtib, 2023-yili professor Nodir Mammadi mazkur noyob manbani Ozarbayjon tilshunoslik instituti arxividan topib oladi.

Shu oʻrinda ozarbayjon olimasi Almaz Ulvi Binnatovadan Xolid Saidga qoʻyilgan siyosiy ayblar haqida soʻradik. Olima savolimizga shunday javob berdi:

—Xolid Saidga bir emas, bir necha siyosiy ayblar qoʻyiladi: 1916-yildan beri panturkizm faoliyati bilan shugʻullangan, 1925-yilda Ozarbayjonga kelgach, Aziz Gubaydullinning panturkist tashkilotiga kirgan, ayniqsa, yosh oʻquvchilar orasida zararli gʻoyalar tarqatgan. Shuningdek, Vali Hulufu, Gulom Bagʻirov, Zifeld, Jabbar Mammadzoda, Hanifi Zeynallilar bilan panturkistik aloqada boʻlgan. 1918-yilda esa Istanbul universitetidan bir guruh talabalar bilan Nuri Poshoning qoʻmondonligi ostida faoliyat olib borgan. Fidoyi oʻzbek olimidan **“josusligi”**ni boʻyniga olish talab etiladi. U 1937-yil 13-oktabrda Bokuda qat etildi. Xolid Saidning turmush oʻrtogʻi Sora Rizo qizi ham **“siyosiy mahbus”**ning rafiqasi sifatida 14 yilga Sibirga surgun qilinadi. Sora xonim surgundan soʻng, 1955-yil 16-aprelda turmush oʻrtogʻining oqlanishini talab qiladi. 1956-yil 16-mayda Xolid Said Xoʻjayev ishi qaytadan koʻrilib, vafotidan roppa-rosa 20 yil oʻtib oqlanadi.

Suhbatimiz davomida Almaz Ulvi Binnatova **“Devonu lugʻotit-turk”** haqida xalqaro ilmiy doiralarda boʻl aytiladigan bir tarixiy maʼlumotga eʼtiborimizni qaratadi:

— 1914-yilda Turkiyaning Diyorbakir shahrida bir beva xotin pulga muhtoj boʻlganidan kitobfurush doʻkoniga eski qoʻlyozmani olib kelib: **“Menga bu kitobni qoldirgan marhum, agar qiyalib qolsamgina shu kitobni sotishimni, lekin 30 lira oltindan kam narxga rozi boʻlmasligini”** aytayotgan, deydi. Kitobfurush qoʻlyozmani bunchalik qimmatga olgisi kelmasa-da, **“Kitob doʻkonda tura tursin, xaridor chiqsa pulini olarsiz”**, deydi. Xaridorlar kelib-ketaveradi, birontasi bu **“eski qogʻozlar”**ni 30 lira oltinga olgisi kelmaydi. Nihoyat, diyorbakirlik kitob ishqibozlaridan biri Ali Amiriy afandisi doʻkonga kelib, bu koʻrimsiz qoʻlyozmaga xaridor boʻladi. U kitob bilan tanishib chiqqach, shunday deydi: **“Kitob oldim,**



XOLID SAID XOʻJAYEV (1888-1937)

uyga keldim, yemak-ichmakti unutdim. Bu kitobga haqiqiy qiymat berilmak lozim boʻlsa, jahonning xazinalari kifoya qilmas”. Keyinchalik maʼlum boʻlishicha, bu kitob **“Devonu lugʻotit-turk”** degan shoh asar boʻlib, Mahmud Koshgʻariy qoʻli bilan yozilgan asl nusxadan koʻchirilgan ekan. Qoʻlyozma hozirgi kunda Istanbul Milliy kutubxonasida Ali Amiriy fondida saqlanmoqda.

Taʼkidlanganidek, sotib olish uchun dunyo xazinalarida kifoya qilmaydigan bu noyob asar turkiy tillar tarixi va bugungi rivojida juda katta ahamiyat kasb etadi. Mazkur asar tarjimasi va targʻiboti uchun oʻz hayotini tikkan olim Xolid Said Xoʻjayev nomi esa XX asrning notinch tarixida oʻz milliy va maʼnaviy merosini saqlab qolgan, shuningdek, ilgʻor gʻoyalar bilan yangi taraqqiyot yoʻliga kirgan boshqa mashhur turkolog olimlar bilan bir qatorda turadi, uning ilmiy asarlari va tarjimalari jiddiy oʻrganilishi zarur.

Muxtasar TOJIMAMATOVA,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri

“Yangi Oʻzbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

MUASSIS:
Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qoʻlyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatl chop etilishiga “Kolopak” MCHJ masʼul.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan roʻyxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 1121.

44543 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qogʻoz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolopak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Oʻzbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar koʻchasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Bekkul Egamqulov
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Sherzod Mahmudov

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz koʻchasi, 85-uy

OʻzA yakuni — 00:10 Topshirildi — 00:55